

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ЎРТА ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

ТАБИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТИ

“БИОЛОГИЯ” КАФЕДРАСИ

ҚАЗОҚОВА ДИЛНОЗА

“Эфир мойли экинларнинг аҳамияти”

**5140100-Биология таълим йўналиши бўйича бакалавр
квалификациясини олиш учун**

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

БМИ кафедранинг №____сонли қарори

____май 2019 йил билан ҳимояга рухсат этилган

Кафедра мудири, доц_____Б.Б.Тохиров

Факультет декани, доц_____Х.Т.Артикова

Илмий раҳбар, доц_____Н.Э.Рашидов

Бухоро-2019

Mundarija

Kirish.....	3
1-bob.Efir moylari.....	6
2-bob.Efir moyli o'simliklarning turlari.....	9
3-bob.Efir moylarining xalq xo'jaligida ahamiyati.....	49
Xulosa.....	57
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	58

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Efir moyi deb o‘simliklardan suv bug‘i yordamida haydab olinadigan, o‘ziga xos hid va mazaga ega bo‘lgan uchuvchan organik moddalar aralashmasiga aytiladi. Xushbo‘y hidli o‘simliklar va ulardan olinadigan ba’zi mahsulotlar (tarkibida efir moyi bo‘lgan o‘simliklardan olingan xushbo‘y suvlar, smolalar va efir moylari) qadimdan ma’lum.

Odamlar bu mahsulotlardan turli kasalliklarni davolashda, ovqat tayyorlashda keng foydalanib kelganlar. O‘rta asrlarda Arablar o‘simliklardan efir moylarini suv bilan haydab olish va ularni suvdan ajratish usullarini yaxshi bilardilar.

XVIII asrdan boshlab efir moylarining xossalari va tarkibiy qismi o‘rganila boshlangan bo‘lsada, bu sohadagi ishlar XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida ayniqsa avj oladi.

A.M.Butlerov va A.N.Reformatskiy (Rossiya), Gildemeyster va Gofman (Germaniya), YE.YE.Vagner (Polsha) va boshqa mashhur olimlar efir moylarini o‘rganishga katta hissa qo‘shdilar.

Tarkibida efir moyi bo‘lgan o‘simliklar asosan Ukraina, Moldaviya, Gruziya, Tojikiston, Qirg‘iziston respublikalarida, Shimoliy Kavkaz, Qrim, Voronej viloyatlarida ko‘plab o‘stiriladi.

O‘simliklarning deyarli barcha organlarida efir moyi bo‘ladi. U gul va meva, barg va yer ostki organlarida hamda o‘simlikning butkul yer ustki qismida to‘planadi.

Efir moyining miqdori o‘simliklarda 0,001—20 % bo‘lishi mumkin. Bu moyning miqdori va tarkibiy qismi o‘simlikning o‘sish joyiga, rivojlanish davriga, yoshiga va naviga qarab o‘zgarib turadi.

Turli o‘simliklarda efir moyining ko‘p miqdorda to‘planishi turli vaqtlarga to‘g‘ri keladi. Odatda o‘simliklar gullash, ba’zilar g‘unchalash davrida yoki bundan ham ertaroq efir moylarini maksimal miqdorda to‘playdi. Efir moyining o‘simlik tarkibida ko‘p yoki kam miqdorda to‘planishi havo haroratiga va

namligiga, tuproq namligiga hamda yerdagi mineral moddalarning ko‘p yoki ozligiga bog‘liq.

Odatda havo harorati ko‘tarila boshlagan sari o‘simlik tarkibida efir moylari ko‘proq sintezlanadi va aksincha, havo namligi ko‘payishi bilan bu birikmalar miqdori kamayib boradi. Tuproqdagi namlikning o‘rta darajadan ko‘p yoki kam bo‘lishi o‘simlik tarkibida efir moylarining kamayishiga olib keladi. Shuningdek qurg‘oqchilik ba‘zi o‘simliklarda efir moylarining ko‘p to‘planishiga sabab bo‘ladi. Odatda janubiy tumanlarning florasi shimoliy tumanlarnikiga nisbatan efir moyi saqlovchi turlarga boy. Shu sharoitda o‘sadigan o‘simliklarning efir moylarining hidi ko‘proq xushbo‘y, tarkibiy qismi ham murakkabroq bo‘ladi.

Efir moylarining o‘simliklar hayotida tutgan o‘rni, ya‘ni ahamiyati shu vaqtgacha to‘la aniqlanmagan. Ba‘zi olimlar efir moylari va smolalar o‘simliklarni turli kasalliklardan, zararkunandalardan, chirishdan hamda zaharlanishdan saqlash vazifasini o‘taydi, degan fikrni bildiradilar. Ba‘zi nazariyalarda esa efir moylari hasharotlarni jalb etadi va o‘simlik gullarining changlanishiga yordam beradi deyiladi. Bundan tashqari efir moylari o‘simlik chiqindisi yoki zahira ovqat moddasi bo‘lib xizmat qiladi, degan fikrlar ham bor.

Insonning yashashi uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat, dori-darmon, vitamin, shakar moddalari, yog‘lar, efir moylari va boshqa mahsulotlar o‘simliklardan olinadi.

O‘simliklar o‘z navbatida tabiiy kimyoviy laboratoriya vazifasini o‘taydi va murakkab tuzilgan har xil organik birikmalarni sintez qiladi. Bu birikmalar esa xalq xo‘jaligining turli tarmoqlari uchun qimmatbaho xom ashyo manbalari bo‘lib hisoblanadi. Shu sababli efir moyli o‘simliklarni o‘rganish va ulardan unumli foydalanish xalq xo‘jaligimizning asosiy vazifalaridan biridir.

Hozirgi vaqtda xalq xo‘jaligida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘simlik mahsulotlaridan biri efir moyidir. Chunki xalqning moddiy hamda madaniy farovonligini yanada oshishi, turmush sharoitlarining tobora yaxshilanib borishi efir moylaridan tayyorlanayotgan parfyumeriya-kosmetik mahsulotlarining yuqori sifatli bo‘lishini taqozo etadi.

Efir moylari o'simliklarning hamma organlarida to'planadigan bir qancha moddalarning murakkab birikmasidan tashkil topgan, genetik jihatdan o'zaro uzviy bog'langan organik moddalar yig'indisidir. Efir moylarining komponentlariga uglevodorod, spirt, aldegid, keton, fenol, lakton, efir, xinon, kislota, azotli birikmalar va bir qancha moddalar kiradi. Tibbiyotda efir moylaridan turli xastaliklarni davolashda qo'llaniladigan dori-darmonlar ishlab chiqariladi. Bu dori-darmonlar og'riqni qoldirish, asab sistemasini tinchlantirish, oshqozon-ichak faoliyatini yaxshilash xususiyatiga ega. Efir moylari atir-upa, farmatsevtika hamda oziq-ovqat sanoati tarmoqlari uchun asosiy xomashyo manbai.

Maqsad va vazifalar. Hozirgi vaqtda xalq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'simlik mahsulotlaridan biri efir moylaridir. Shuningdek, O'zbekiston florasida mavjud bo'lgan o'simliklarni o'rganish, ularni ko'paytirish usullarini yaratish va efir moylarini ajratib oladigan korxonalarni ko'paytirishdan iborat. Shu munosabat bilan bitiruv malakaviy ishining vazifalari quyidagilarni bajarishdan iborat:

- Efir moyli o'simliklar haqida ma'lumot ;
- Efir moyli o'simliklarni turlarini o'rganish ;
- Ularning xalq xo'jaligidagi ahamiyatini o'rganishdan iborat.

1-bob. EFIR MOYLI O'SIMLIKLAR VA EFIR MOYLARI

Efir moylarining asosiy manbai efir moyli o'simliklardir. Er yuzida tarqalgan barcha o'simliklar 300 oilaga mansub bo'lib, ularning 87 oilasiga kiruvchi turlarida efir moylari borligi aniqlangan. Hozirgi vaqtda 2500 o'simlik turlarida efir moylarining saqlanishi o'rganilgan bo'lib, ulardan 77 oilaga kiruvchi 1100 dan ortiq turi MDH florasida uchraydi. Efir moylari o'simlikning ma'lum hujayra va to'qimalardagi maxsus bo'shliqlarda hamda kanalchalarda to'planadi. Bundan tashqari hujayra shirasida emulsiya holatida va parenxima hujayralarida uchraydi. O'simlikning o'sishi, rivojlanishi va tarqalgan sharoitiga qarab, undagi efir moylarining miqdori o'zgarib turadi.

Efir moylari o'simliklarning urug` va mevalarida, gul va barglarida, poya hamda ildizlarida bo'ladi. Efir moylari o'z kimyoviy tarkibining murakkabligi, uchuvchanligi va xushbo'y bo'lishi bilan o'simlik moylaridan farq qiladi. Agar efir moylari qog'oz yoki materialga tekkizilsa, unda hech qanday dog` qoldirmaydi. O'simlik moylari esa iste'mol qilinadi.

Efir moylari ko'pchilik o'simliklarda erkin holda bo'lib, suv bug'i yordamida haydab olish yoki ekstraktsiya usuli bilan ulardan ajratib olinadi. Ba'zi o'simliklarda efir moylari glyukozidlar va boshqa moddalar bilan birikkan holda bo'ladi. Ularni sof holda ajratib olish uchun fermentatsiya usulidan foydalaniladi.

Efir moylari bir qancha moddalarning murakkab birikmasidan hosil bo'lgan, genetik jihatdan o'zaro uzviy bog'langan va turli xil organik birikmalardan iborat. Ularning komponentslariga uglevodorod, spirt, aldegid, keton, fenol, lakton, efir, xinon, kislota, azotli birikma va boshqa moddalar kiradi.

Efir moylarining tarkibidagi komponentlardan birining miqdori ko'p bo'lsa, u moyning hidini, ya'ni fizikaviy va kimyoviy xususiyatlarini belgilaydi. Efir moylarining komponentlaridan parfyumeriya sanoati uchun eng ahamiyatlisi kislorodli birikmaligidir.

O'simliklardan ajratib olingan efir moylari ochiq havoda yorug`lik ta'sirida rangi, tarkibi hamda efir moyi tarkibidagi komponentlarning xususiyatlarini tez

o'zgartiradi. Kislorod va havo namligi ta'sirida ba'zi birlarining oksidlanishi hamda uchuvchanlik holatini yo'qolishi natijasida yuqori temperaturada qaynovchi polimerli birikmalar hosil qilinadi. Efir moylarining tarkibida aldegidlar bo'lsa, bu vaqtda u qorayadi.

Efir moylarining o'simlik a'zolarida qanday funkstiyani bajarishi va ahamiyati to'g'risida bir qancha nazariya va fikrlar mavjud.

Ba'zi nazariyalarga ko'ra efir moylari o'simlikni turli xil kasalliklardan va zararkunandalar ta'siridan saqlab qoladi hamda o'simlik to'qimalari jarohatlanganda uni chirimasligi va qaytadan tiklanishi uchun xizmat qiladi. Ilmiy tekshirishlar va kuzatishlar natijasida yalpiz, marmarak, yorongul, tog'rayhon, avrug va boshqa ko'pgina efir moyli o'simliklarning turli xil kasalliklarga duchor bo'lishi va jarohatlanishi aniqlandi. Efir moyli o'simliklarda efir moylari o'simlikni hayvonlarning eyishidan himoya qiladi degan fikrlar bor. Shuvoq, estragon, lavanda kabi o'simliklarni qoramollar, qo'y va echkilar eydi. O'simlik gullaridagi efir moylari hasharotlarni o'ziga jalb qiladi va o'simliklar ular yordamida changlanadi degan fikrlar ham bor.

Tendal nazariyasi bo'yicha efir moylari bug'lanib, o'simlikning atrofini o'rab oladi va havo yo'lini ma'lum darajada to'sadi. Efir moylari kunduz kunlari o'simlikni haddan tashqari qizib ketishdan va kechalari sovib qolishdan saqlaydi. Bu nazariyada efir moylari o'simlikning bug'lanishini boshqarib turadi deyiladi.

Sharabo nazariyasida o'simliklarda efir moylari zapas modda rolini bajaradi deyiladi. Efir moylari deydi Sharabo o'simliklarning yashil qismlarida va barglarida hosil bo'ladi va so'ngra meva beradigan a'zolari tomon astasekin o'ta boshlaydi. Efir moylarining ma'lum qismi o'simlikning gullash davrida sarflansa, qolgan qismi esa o'simlik gullagandan keyin yana barglarga qaytadi.

Menar va Merni efir moylari o'simlikning hayot prostessida paydo bo'lgan ortiqcha moddadir, ularni o'simliklar a'zolaridan chiqarib tashlaydi degan nazariyani ilgari suradilar.

Yuqoridagi bayon etilganlardan ma'lum bo'ldiki, efir moylarining o'simlik organizmlari uchun ahamiyati to'g'risidagi fikrlar tajribalarda etarli darajada

isbotlanmagan. Bunga asosiy sabab efir moylari murakkab birikmalardan tashkil topgan bo'lib, ularning tarkibi va komponentlarining hosil bo'lishi turlichadir. Efir moylarining o'simlik uchun ahamiyatini batafsil tushuntirib berish va ularni bir sxemaga solish murakkab masaladir. Odamlar ko'pincha dorivor o'simliklarni yig'ib, undan uy sharoitida o'zlari dori tayyorlab oladilar. Bunday Holatlar salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, tabiatda tashqi ko'rinishidan dorivor o'simliklarga o'xshagan zaHarli o'simliklar yoki Ham zaHarli, Ham dorivor o'simliklar uchraydi. Masalan: bangidevona, qora ituzum. Shuning uchun dorivor o'simliklarni yig'ishdan avval ularning botanik belgilarini, yig'ib olinadigan muddatini bilib olish kerak bo'ladi. Dorivor moddalar o'simliklarning ba'zilarida kurtagida, bargida yoki poyasida, ba'zi o'simliklarning guli yoki mevasida, ba'zilarini esa ildizi yoki po'stlog'ida to'planishi mumkin. Bu esa ularni biologik xususiyatlarini bilmasdan turib, ulardan foydalanish salbiy oqibatlarga olib kelishiga sabab bo'ladi. Mazkur Holatlarning barchasi mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Dorivor o'simliklarni o'rganishdan maqsad ularni biologik xususiyatlarini o'rganish, Hududdagi dorivorlik xususiyati bo'lgan o'simliklarni aniqlash va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash.

Dorivor o'simliklarni yig'ishda - odatda barglar o'simlik gullashi oldidan yoki gullaganda Havo ochiq paytida shudring ko'tarilgandan so'ng yig'ib olinadi. O'simlikning meva va urug'lari esa pishib etilganda yig'iladi, chunki ular bu paytda dori moddalariga boy bo'ladi, shirali va rezavor mevalar ertalab yoki kechqurun uzib olinadi.

2-bob. EFIR MOYLI O'SIMLIKLARNING TURLARI

Efir moyli ekinlarning urug`ida, mevasida, bargida, poyasida xushbuy moddalar-efir moylari mavjud. Ularning miqdori 0,1-6,7 % atrofida bo'ladi. Efir moylar tarkibida har xil organik moddalar (karbon suvlari, spirt, efirlar, organik kislotalar va h.) mavjud. Efir moyli ekinlar aksariyat xolda Ariaceae oilasiga mansub.

Asosiy vakillari:

Arpabadiyon (anis) - *Ritrine11a anisit* L

Oq zira (fenxel) – *Foenisiluv vilgare* L

Kashnich (koriandr) - *Soriandrim sativit* L

Qora zira (tmin) - *Sarim sarvi* L

1-jadval

Barglarning farqi

Ekin turi	Maysa			Chinbarg		
	shakli	uzunligi	eni, mm	Shakli	cheti	joyla shishi
Arpa-badiyon	cho'zinchok, ponasimon	15-17	4-5	dumaloq yuraksimon	kam kertilgan	juft bo'lib
Oq zira	cho'zinchok	40 gacha	11pasida, 1,5 uchida	yuraksimon, patsimon, kertilgan	bo'lak- lari ingichka, 5 mm uzunligi	bittadan
Kashnich	ponasimon, cho'zinchok	12-15	4-5	dumaloq, yuraksimon	3-5 bo'lakli	bittadan
Qora zira	ingichka uzun	20 tagacha	2-3	yuraksimon, cho'zinchok	kam kertilgan	bittadan

Maysa va birinchi chin barglarini morfologik belgilariga qarab dalada ekin turlarini oson ajratib olish mumkin.

Morfologik belgilari: Efirli moyli ekinlar er betiga urug` pallasini chiqaradi, bu urug` barglari cho`zinchoq shaklda bo`ladi. Urug` barglarining orasida joylashgan kurtakdan chin barg chiqadi. Birinchi chin barglari ekinlarda farq qiladi.

2-jadval

Efir moyli ekinlariii gullash davridagi belgilari

Ekin turi	baland- ligi, sm	barg joylashishi	barg shakli	gul to`plami	gul rangi
Arpabo- diyon	30-60	ketma ket, uzun bandli	dumaloq, uch qo`shaloq, kertilgan, cheti tishchali	murakkab soyabon	oq, sariq
Oq zira	100	ketma ket	cho`zinchoq, ponasimon, ko`p kertilgan	murakkab soyabon	sariq
Kashnich	50-60	ketma ket	patsimon, ko`p kertilgan	murakkab soyabon	oq, pusht binafsha
Qora zira	100-150	ketma ket	patsimon kertilgan	Murakkab soyabon bandli	oq

Bu ekinlarning farqini gullash davrida aniqlash oson. Bu davrda ekinlarda barcha barglar rivojlangan bo`ladi, ularning shakli rivojlanish davriga qarab ancha o`zgaradi.

Efir moyli ekinlarda urug`lik o`rnida meva va meva bo`laklari qo`llanadi. Bu ekinlarni mevasi maydg, uzunli- gi 3-5 mm, sharsimon, cho`zinchoq, qar meva ikkip mevachadan iborat, mevachada bittadan urug`cha bo`ladi, meva etil- ganda mevachalar ajraladi. Meva yuzasida uzunasiga ketgan qovurg`alar mavjud.


Efir moyli ekinlar urug`larining morfologik belgilari

Ekin turi	Shakli	Kattaligi	Yuzasi	Rangi
Arpabodiyon	tuxumsimon	3-4 mm	uzunasiga ketgan qovurg`ali, tuklangan	yam-yashil
Oq zira	xaltasimon	uzunligi 3- 5 mm, eni 1- 1,2 mm	uzunasiga ketgan qovurg`ali, tuklangan	ko`k-yashil
Kashnich	sharsimon	3-4 mm	kam qovurg`ali	sariq somon rangli
Qora zira	cho`zinchoq, ponasimon	uzunligi,3- 5 mm, eni 1,5 mm	uzunasiga ketgan qovurg`ali	sariq jigar rangli

Arpabodiyon

Arpabodiyon (anis) *Rimripella anisim* L turiga, ziradoshlar Ariaseae oilasiga mansub bir yillik ekin.

Ildizi o`q ildiz, ingichka, yaxshi rivojlangan. Poyasi o`tsimon, balandligi 25-60 sm, tik o`sadi, yuqorgi qismi shoxlanadi. Bargi uch xil bo`ladi. Pastki barglari bandli, butun, dumaloq, buyraksimon, kam kertilgan, chetlari tishchali. O`rta barglari uzun bandli, uch qo`shaloq, barglari panjasimon qiyilgan. Yuqorgi barglari bandsiz, 3-5 bo`lakli. Gulto`plami murakkab soyabon, gullari oq rangli. Mevasi tuxumsimon, noksimon, uzunligi 3-4 mm, ikkita bir urug`li pishganda chatnamaydigan mevachalardan iborat. Mevaning yuzasida uzunasiga ketgan o`nta qovurg`asi bo`ladi. Egatchalarda efir moylar ko`p bo`ladi, rangi ko`k- yashil bo`ladi (1-rasm).



1-rasm.
Arpabodiyon
o'simligi.

2-rasm. Oq zira
o'simligi.

Oq zira

Oq zira (fenxel) - *Foeniculum vulgare* L turiga, ziradoshlar *Ariaseae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Ildizi o'q ildiz, yaxshi rivojlangan. Poyasi tik o'sadi, ser shoxli, balandligi 1-2 m bo'ladi.

Bargi ketma ket joylashadi, kuchli kertilgan bulaklari ingichka, barglarning rangi ko'k - yashil. Gulgo'plami murakkab soyabon, gul rangi sariq bo'ladi. Mevasi xaltasimon, ikkita bir urug'li mevachadan iborat. Meva yuzasida o'nta uzun qovurg'asi bo'ladi. (2-rasm).

Kashnich

Kashnich (koriandr) – *Sorapogon sativum* L turiga, ziradoshlar *Ariaseae* oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Ildizi o'q ildiz, yaxshi rivojlangan, ingichka, urchiqsimon. Poyasi sershoxli, tik o'sadi, balandligi 30-120 sm bo'ladi, tuksiz, naysimon, qirrali, antostian dog'lari bo'ladi.

Bargi - har xil shaklda, o'ziga xos hidga ega. Pastki barglari bandli, patsimon, patsimon-kertilgan, o'rtadagi barglari ikki barobar patsimon, yuqorgi barglar ingichka bo'laklarga qiyilgan. O'rta va yuqorgi barglar bandsiz bo'ladi. Gulgo'plam murakkab soyabon. Oddiy soyabonaar asosida barglarga o'ralgan bo'lib, 3-5 ta barglar bo'ladi. Murakkab soyabonda barg o'ralmalari yo'q. Gullari

mayda oq, pushti, och sariq, och binafsha rangli. Guli beshtali, tugunchasi ikki uyali, xasharotlar yordamida chetdan chnnglanadi. Mevasi ikki urug`li, sharsimon, chuzinchoq, bir urug`li, pishganda chatnamaydigan ikkita mevachalardan iborat. Efir moyi mevachalarning ichki tomonida maxsus egatchalarda to`planadi. Pishganda mevalar to`kiladi. 1000 dona mevaning vazni 7-10 g. Meva tarkibida 0,2-1,4% efir va 16-28% moy bo`ladi.

Orzu navi. O`zbekiston sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ITI da yaratilgan. 2000-yildan boshlab rayonlashtirilgan. Balandligi 20-30 sm, barglari asosan ildiz atrofida, shakli konussimon. Barg bandi ingichka va uzun. Barg bo`laklari juft-juft joylashgan, bargchalar shakli yumaloq, ba`zan ponasimon, chetlari qirqilgan, maxsus xushbo`ylik taratadi. Asosan bargi istemol qilinadi. Iste`mol uchun o`suv davri 28-32 kun. Asosiy novda balandligi 70-100 sm, u yon novdalar chiqarib, bu novdalar urug` soyabonchalari bilan tugaydi. Hosildorlik bir kvadrat metrdan 1,9-2,3 kg ni tashkil etdi. Sovuqqa chidamli. O`suv davri 42-44 kun.

Qora zira

Qora zira (tmin) Sagvim sarvi turiga, ziradoshlar Ar1aseae oilasiga mansub ikki yillik o`simlik. Ildizi o`q ildiz, yaxshi rivojlangan. Poyasi tik o`sadi, balandligi 1-1,5 m. bo`ladi, sershoxli, ichi kavak, tuksiz. Bargi kuchli qiyilgan, patsimon kertilgan. Gulto`plami murakkab soyabon, asosida ingichka yon guli bo`ladi, rangi oq, uzun bandli. Mevasi yassi, jigar rangli, ikkita bir urug`li mevachalar dan iborat. Meva yuzasida uzunasiga ketgan o`nta qovurg`asi bor. Rangi sariq- somon rangli. Qovurg`alari orasida efir moyi joylashadi (3-rasm).

Tog`rayhon

Tog`rayhon labguldoshlar oilasiga mansub bo`lib, ko`p yillik o`t o`simlikdir. Uning bo`yi 30—85 sm keladi. Respublikamiz florasida uniig bir qancha turi va formalari uchraydi. Tog`rayhon O`zbekistonning tog`li rayonlarining mayda shag`alli, chirindiga boy bo`lgan qo`ng`ir va qoratuproqli erlarida o`sadi. U iyun - avgust oylarida gullab, shonalaydi. Sentyabrda mevalari pishadi.



3-rasm. **Qora zira o'simligi**

Tog`rayhon shifobaxsh o'simliklar qatoriga kiradi. Medistinada uning bargi, barra novdalari va to'pguli turli kasalliklarni davolashda hamda ovqat hazm qilish a'zolarining ish faoliyatini yaxshilashda ishlatiladi. Tog`rayhondan tayyorlangan sharbatdan uyqusizlik, bachadon qasalliklarini davolashda, siydik haydovchi vosita sifatida, badanda hosil bo'lgan dog'larni yo'qotishda ishlatiladi. Undan


olingan efir moyini surkaydigan dori va balzam bilan aralashtirib tish og'rig'i kasalligini davolashda qo'llaniladi.

Tog'rayhon xushbo'y hidli bo'lganligi uchun ziravor sifatida ham ishlatiladi. U turli xil konserva, marinadlar tayyorlashda, bodring, pomidor, karam va tarvuzlarni tuzlashda ishlatiladi. Mahalliy xalqlar tog'rayhonning er ustki qismlarini quritib, quritilgan mevalarga (o'rik, olma, olchalarga) aralashtiradilar. Bu esa mevalarni har xil hasharot lichinkalarining zararlantirishidan va qurtlashdan saqlaydi.

Tog'rayhondan vermut, vino, kvas, va aroqlarga xushbo'y hid berishda ham qo'llasa bo'ladi. Efir moylaridan hidli atirlar, tish yuvadigan pasta, hidli sovunlar va suvlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Bu o'simlik o'zida ko'p miqdorda efir moylarini saqlaydi.

N. Kudryashev (1934, 1938) Hisor tog'ida o'suvchi tog'rayhonda 0,17—0,37 prostent, Qirg'iz Olatog'i va Talas Olatog'ida o'suvchi tog'rayhonda 0,4—0,57 foiz efir moylari borligini aniqladi. A. D. Bezzubov va N. M. Shornikovalarning (1952) aniqlashicha, Farg'ona vodiysida uchraydigan tog'rayhonning urug'ida 1,86 foiz, gulda 2,11 foiz, bargida 2,24 foiz, poyasida 0,176 foiz efir moylari bor ekan.

Ilmiy tekshirishlar natijasida Bo'stonliq rayonining Xumson qishlog'ida dengiz sathidan 1600—1700 m balandlikda o'suvchi tog'rayhonning gullash davrida uning er ustki a'zolarida 1,5 foiz, to'pgulida 1,8 foiz, bargida 2,2 foiz efir moylari borligi aniqlandi. Shohimardon sanatoriysining atrofida tarqalgan tog'rayhon gullash davrining boshlarida to'p guli va barglari 1,49 foiz, poyasi 0,066 foiz efir moylarini saqlaydi. Efir moyi ochjigar rang yoki ochsariq rangli, xushbo'y hidli bo'lib, kimyoviy tarkibi fenol, timol va karvakrollardan tashkil topgan. Tog'rayhonda efir moylarining asosiy qismi dastlabki 20—25 minutda ajralib chihadi. Har bir gektar maydondan 100—400 kg tog'rayhonning er ustki qismlarini yig'ishtirib olish mumkin (4-rasm).



4-rasm. **Tog`rayhon.**

Kiyik o't

Kiyik o't labguldoshlar oilasiga mansub bo'lib, balandligi 40 sm. O'zbekistonda kiyik o'tning 7 ta turi keng tarqalgan. Bu o'simliklarning ba'zi turlari bir yillik va ko'p yillik hisoblanadi. Kiyik o'ti respublikamizning barcha tog'li rayonlarining adir va tog' zonalarining shimoliy, janubiy yon bag'irlarida, shag'alli va toshli, qo'ng'irsimon tuproqli erlarda, dengiz sathidan 900—2400 m balandlikda o'sadi. Kiyik o't iyun, iyulda gullab, iyul oyining oxirlarida va avgust oyining boshlarida mevalari pishadi .

Kiyik o't ziravor sifatida turli xil taomlar va salatlar tayyorlashda ishlatiladi. Undan meva va sabzavot mahsulotlarini tuzlashda ham foydalansa bo'ladi. Kiyik o't sanoatda go'sht va baliq konservalari, shirinliklar, vino, likyorlarni ishlab

chiqarishda foydalaniladi. Bu o'simlik taomlarga solinadigan qora murch va lavra barglaridan o'zining shifobaxshligi, ta'mi bilan ustun turadi.

Kiyik o't medistinada yurak sanchish kasaliga qarshi qaynatilib ichiladi. Uning bargi, poyasi va to'pgullari efir moylariga juda boy. Ulardan atir, hidli sovun spirtli va spirtsiz ichimliklar ishlab chiqarishda foydalanish lozim.

S. N. Kudryashev (1934) Hisor tog'ida (Tojikiston SSR) o'sadigan kiyiko'ti gullagan davrida uning tarkibida 0,4 foiz efir moyi borligini aniqlagan.

A. D. Bezzubov va N. M. Shornikova (1952) Janubiy Qirg'izistonda keng tarqalgan kiyik o't gullagan vaqtida 0,854 foiz, gulida 2 foiz, bargida 0,67 foiz, poyasida 0,122 foiz efir moyi borligini tekshirgan.

Farg'ona vodiysining Mashalang soyida dengiz sathidan 1800 m balandlikda o'sadigan kiyik o'ti gullagan davrida undagi efir moyining miqdori aniqlangan. Uning er ustki qismi 0,6—1,1 foiz , to'pguli 1,5—2,3 foiz, poyasi 0,06—0,09 foiz efir moyini saqlaydi. O'simliklardan olingan efir moylari xushbo'y hidli bo'lib, asosiy qismini apinen, pulegon, menton tashkil etadi. Efir moylari ochyashil, ochsariq, jigarrang bo'ladi. Kiyik o'tdan olingan efir moyi ochiq havoda oksidlanib, rangini o'zgartiradi.

Kiyik o'tidagi efir moylarining asosiy qismi dastlabki 40—50 minutda ajratib olinadi. Bu o'simlik Bo'stonliq rayoi va Farg'ona vodiysida juda ko'p uchraydi. Ulardan xalq xo'jaligida foydalanish zarur.

Limon o't

Limon o't labguldoshlar oilasiga mansub bo'lib. uning balandligi 30—120 sm. Bu o'simlik ko'p yillik o't bo'lib, respublikamiz tog'li rayonlarining tog'oldi va tog'ning o'rta mintaqasida uchraydi. Limon o't iyun, avgust oylarida gullab, iyul, sentyabr oylarida pishadi.

Uning hidi limon hidini eslatgani uchun ko'pincha limonli melissa deb yuritiladi. Limon o't ziravor o'simlik sifatida Italiyada, Skandinaviya, Angliya

hamda Shimoliy Amerikada katta-katta maydonlarda o'stiriladi. Limon o't bizda kam iste'mol qilinadigan ziravor o'simlikdir. U manzarali o'simlik sifatida ekiladi.

Limon o't gullaguncha bargi va barra navdalari ho'l yoki quritilgan holda salatlarga, sho'rvalarga, kompotlarga va sutli taomlarga solinadi. Undan go'shtli, baliqli va zamburug'li konservalar tayyorlashda foydalansa ham bo'ladi. Limon o't spirtli va spirtsiz ichimliklar ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Limon o't medistinada organizmning harakatchanligini oshirishda, ishtahani ochishda va oshqozon, nafas yo'llari yallig'lanish kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Undan tayyorlangan dori-darmonlar oshqozon va ichakda to'planib qolgan gazlarni haydab chiqaradi.

Limon o't tarkibida achchiq va oshlovchi moddalar, organik kislotalar, mineral tuzlar, vitamin S hamda efir moylari bor. Uning efir moylaridan xushbo'y sovunlar, tish yuvadigan pastalar hamda atirlar tayyorlash mumkin. A. P. Qondrastkiy, A.R. Nikitinskiy (1924) botanika bog'ida o'stirilgan limon o'tda 0,06 prosent efir moylari borligini aniqlagai.

Farg'ona vodiysining Mashalang soyida keng tarqalgan limon o't gullash davrida uning barg va to'pgullarida 0,04 prosent, bargida 0,09 prosent efir moylarini saqlaydi. Efir moylarining asosini stitral, stitranellal, linalool, geraniol tashkil etadi.

Limon o'tning katta maydonlardagi tabiiy boyliklari yo'q. U urug'dan osonlik bilan ko'payadi, er tanlamaydi. Uni tabiiy o'sayotgan joylarida ko'paytirish yaxshi natijalarni beradi.

Tog`jambul

Tog`jambul labguldoshlar oilasiga kiruvchi, balandligi 10—30 sm keladigan yarimbuta o'simlikdir. Respublikamiz florasida uning 2 ta turi va bir qancha gibridli formalari mavjud. Ular Farg'ona, Toshkent va Samarqand oblastlarining tog'li zonalarida keng tarqalgan bo'lib ajriqsimon o'sadi. Tog`jambul iyun, avgustda gullab, iyul, sentyabrda uning urug'lari pishadi.

Mahalliy xalqlar bu o'simlikdan qadimdan beri ziravor sifatida foydalanib keladilar. Tog`jambuldan sabzavotli, go'shtli, baliqli, zamburug`li konservalar tayyorlashda, shuningdek, kolbasalar ishlab chiqarishda, vermut, likyor, aroqlarga hamda konfet, choy, sirkalarga xushbo'y hid berishda foydalanish mumkin.

Greklar tog`jambulning barg va to'pgulidan tumov, qorin og`rig'i, uyqusizlik kasalliklarini davolashda ishlatadilar. Hozirgi vaqtda medistinada tog`jambuldan balg`am tashlatuvchi, bod kasalligini davolovchi, siydik haydovchi va ishtahani ochuvchi dorilar tayyorlanadi. Uning tarkibida oshlovchi, oqsil, bo'yoq moddalari, kamed, smola, yog`lar, organik kislotalar, mineral tuzlar, vitamin S hamda efir moylari bor. Efir moylaridan parfyumeriya — kosmetik tovarlar ishlab chiqariladi.

G. A. Denisova va K. I. Golubevalar (1960) Ko'garda o'suvchi tog`jambul gullash davrining oxirida 0,21 prostent efir moyini saqlashni aniqlaganlar.

Farg`ona vodiysining Shuvalang dovoniga yaqin bo'lgan joyda o'suvchi tog`jambul gullash davrida 0,15— 0,26 prostent efir moylarini saqlaydi. Tog`jambuldan efir moylarining asosiy miqdori dastlabki 20—30 minutda ajratib olindi. Efir moylari xushbo'y hidli, jigar rang bo'lib, uning asosini fenol, timol, karvakrol tashkil etadi. Tog`jambulning etarli tabiiy boyliklari yo'q. U juda osonlik bilan urug`idan hamda yon navdalaridan ko'payadi. Uni tabiiy o'sadigan joylarida ko'paytirib, sanoatda foydalanish mumkin.

Yalpiz

Yalpiz labguldoshlar oilasiga mansub bo'lgan va balandligi 40—100 sm ga ko'tarilib tik o'sadigan ko'p yillik o'simliklarning O'zbekistonda 4 ta turi va bir qancha formalari mavjud. Yalpiz ariq bo'ylarida, daryo qirg'oqlarida, buloq atroflarida hamda tog` oldi qismlaridan tog`ning o'rta mintaqasigacha bo'lgan erlarda, ya'ni dengiz sathidan 400—2300 m balandliklarda o'sadigan o'simlikdir.

Yalpiz ziravor va dorivor o'simlik sifatida juda qadimdan ma'lum. Yalpizning hidi bosh miyaning yaxshi ishlashiga yordam beradi. Italiya va Misr studentlari o'zlari bilan birga yalpizni darsxonalarga olib ketganlar. Rimliklar


uyga kelgan mehmonni yaxshi kutib olish va xushchaqchaq qilish uchun yalpiz suvini uylariga separ va stollarni barglari bilan artar ekanlar.

Erta bahorda endigina ko'karib chiqqan yalpizlardan ko'ksomsa va chuchvaralar tayyorlanadi. Barra barglari va to'pgullarini salat, sho'rva, sabzavot va go'shtdan tayyorlangan taomlarga solib iste'mol qilish mumkin. Yalpizning bargi va barra novdalari turli xil mevalardan tayyorlangan kompotlarga, choylarga, konfetlarga sirka, aroq, konyak, likyorlarga yoqimli hid berishda ishlatiladi. Yalpiz sutning tez achib qolishidan saqlaydi.

Medistinada yalpizning deyarli hamma turlari ovqat hazm qilish organlarining faolnyatini yaxshilashda, bod, ichki kasalliklarni, qichimani davolashda hamda farmakologiyada dorilarni xushbo'y qilishda qo'llaniladi. Yalpiz efir moylariga boy bo'lganligi uchun undan parfyumernya sanoatida tish yuvadigan pasta va parashoklar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Bu o'simlikning deyarli hamma qismida o'sish sharoitlariga va rivojlanish davrlariga qarab 0,08—3 prostsntgacha efir moylari bo'ladi. Uning asosini mentol, menton. terpinenlar tashkil etadi.

L. I. Medvedeva (1960) Kopettog' etaklarida o'suvchi yalpizda shonalash davrida efir moylarining miqdori eng ko'p bo'lishini aniqladi. S. N. Kudryashev (1932—1934) Dushanbe atrofidagi Chortut degan joyda o'sayotgan yovvoyi yalpizlarda 0,08—0,144 prostent efir moylari borligini tekshirdi. Qoraolma atroflarida o'suvchi yalpizlar gullash davrida bargida 0,08-to'pgulida 0,5—0,9 prostent efir moylari borligini aniqlagan. Efir rangli, o'tkir hidli, achchiq ta'mlidir.

Angliya, AQSh, Fransiya, GDR, Yaponiya, Vengriya, Ukraina, Kavkaz, Belorussnyada yalpizlar ekilmoqda. O'simlik vegetativ, ya'ni ildiz poyalaridan qalamcha qilish usuli bilan ko'paytiriladi. O'zbekistonda yalpizlardan foydalanishga e'tibor berilmayopti. Ularning sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan tabiiy boyliklari etarlidir.




5-rasm. **Yalpiz**

Marmarak

Marmarak labguldoshlar oilasiga kiruvchi, balandligi 150 sm keladigan ko'p yillik o'simlikdir. U respublikamizning barcha rayonlarida dengiz sathidan 800—1900 m balandlikda ko'p uchraydi. Uzbekistonda uning bir yillik, ikki yillik

va ko'p yillik vakillaridan 17 ta turi hamda bir qancha formalari mavjud. Marmarak iyun, iyulda gullab; iyul, avgustda urug'i pishadi. GDR da marmarakning barglaridan sous, salat tayyorlaydilar hamda undan choylarga xushbo'y hid berishda, likyor ishlab chiqarishda foydalanadilar.

Marmarakning barglari suyuq taomlarga va murabbolarga solinadi. Quritilgan barglaridan go'shtli va sabzavotli konservalar tayyorlashda, aroq, likyor, vino (muskat vino)larni ishlab chiqarishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Marmarak medistinada tomoq va og'iz bo'shliqlari, nafas yo'llari hamda ovqat hazm qilish organlaridagi ba'zi bir kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Xalq uning urug'idan ko'z og'riq kasalliklarini davolashda foydalanadi. Marmarakning quritilgan bargida oshlovchi (tanid) va achchiq moddalar, urug'ida esa 20—26 irostentgacha yog' bo'ladi. Bu yog' o'zining ta'mi bilan



6-rasm. **Marmarak o'simligi.**

paxta moyidan ustun turadi. Agar marmarak lalmikor erlarda o'stirilsa, har gektar maydondan 114 kg yog' olish mumkin. Vaholonki, xuddi shunday sharoitda har gektar erdagi kungaboqardan 100—110 kg yog' olish mumkin.

Marmarakdan parfyumeriya va vino ishlab chiqarishda juda keng foydalaniladi. Hozir unga bo'lgan talab yil sayin oshib bormoqda. Chunki undan olinadigan efir moylari qimmatbahodir. Efir moyining asosini borneol, stionel,

pinen va tuyon moddalari tashkil etadi. Marmarakdagi efir moylarining miqdori o'sish sharoitiga, rivojlanish davriga, turi va formalariga qarab o'zgarib turadi.

S. N. Kudryashev (1938) olib borgan ilmiy tekshirishlarga ko'ra Sharqiy Chotqolning janubiy yon bag'irlarida o'suvchi marmarak to'pgulining urug'lash davrida 0,12—0,18 prostent moylarini saqlashini aniqladi. Bu erda tarqalgan marmaraklardan 30—50 kg efir moylarini olish mumkin. Marmarak to'pgullari gullaganda undagi efir moylarining miqdori 0,1—0,3 prostentni tashkil qiladi.

Arslonbob qishlog'i atrofida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida dengiz sathidan 1600—1800 m balandlikda o'sadigan marmaraklar shonalash davrida to'pgullarida 0,45 prostent, gullash paytida esa 0,31 prostent efir moylarini saqlashi aniqlangan. U ochsariq rangli, xushbo'y hidlidir. Efir moylarining asosiy qismi dastlabki 30—40 minutda ajralib chiqadi.

Tekshirishlar natijasida shu narsa aniqlandiki, respublikamizda marmarakning katta boyliklari yo'q, bor zapaslari ham sanoat ehtiyojini qondirolmaydi. Shu sababli sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan marmarakzorlarni tog'larning o'rta mintaqasida uchraydigan bo'sh joylarda, namligi etarli bo'lgan tog' oldi qismlarida tashkil etish kerak. U juda osonlik bilan urug'lardan ko'payadi va og'ir mehnatni talab qilmaydi.

Sherolg'in

Sherolg'in murakkabguldoshlar oilasiga mansub bo'lib, bo'yi 40—150 sm keladigan ko'p yillik o't o'simlikdir. U O'zbekistonning barcha tog'li rayonlarining shimoliy, janubiy tog' yon bag'irlaridagi toshli, qo'ng'ir tuproqli erlarda, daryo qirg'oqlari va zax erlarda, dengiz sathidan 1300—2400 m balandliklar- da uncha katta bo'lmagan maydonlarda ko'p uchraydi. Sherolg'in iyunda gullab, urug'i sentyabrda pishadi.

Amerika, Angliya, Fransiya olimlari sherolg'inning ho'l va quritilgan er ustki qismlarini salatlariga, sho'rvalarga, sabzavotli va go'shtli taomlarga solishda hamda marinadlar tayyorlashda, karam, bodring, pomidor tuzlashda, sirka,

murabbolar, konfetlarga xushbo'y hid berishda ishlatish mumkinligi haqida ma'lumotlar beradilar.

Sherolg'in Kavkaz xalqlarining ham sevimli ziravor o'simliklaridan biri bo'lib «tarxun» nomi bilan turli xil ovqatlar, marinadlar tayyorlashda, shuningdek, gorchistaning maxsus xilini ishlab chiqarishda ishlatadilar. Sherolg'indan sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan «estragon sirka»sini tayyorlashda foydalaniladi.

Bu o'simlik vitamin S ga boy bo'lganligi sababli AQShda ko'plab ekiladi va iste'mol qilinadi. Sherolg'in juda qadimdan beri xalq medistinasida siydik haydaydigan va tish tushishiga qarshi ishlatiladigan dori-darmon sifatida ishlatib kelingan. Medistinada sariq suv kasalligini hamda singanni davolashda ishlatiladi. Sherolg'indan parfyumeriya mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalanilsa bo'ladi, chunki u xushbo'y hidli efir moylariga boydir.

M. I. Goryaev (1950) sherolg'ii Il daryosining qirg'oqlarida keng tarqalganligini, gullagan sherolg'in tarkibida 0,3 prostent efir moylari borligini xabar qiladi. S. N. Kudryashev Rufigar qishlog'iga yaqin bo'lgan joyda sherolg'inlar gullash davrida er ustki qismlarida 0,06 prostent, urug'lash vaqtida esa 0,22 prostent efir moylari saqlashini aniqlagan. G. A. Denisova va K. I. Golubeva Ko'gart daryosining qirg'oqlarida uchraydigan sherolg'inlarning gul va barglarida 2,1 prostent efir moylari saqlanganligini ma'lum qiladi. Sinjak qishlog'iga yaqin joylarda tarqalgan sherolg'inlar shonalash davrida so'ldirilgan bargida 0,8—1,3 prostent, to'pgullarida esa 1,5—2 prostent efir moylari bo'ladi. Uning rangi ochyashil yoki yashil bo'lib, hidi esa yoqimlidir. Efir moylarining asosini ostimen, felandren, sabinen, mirsten moddalari tashkil etadi. Sherolg'inlardan xalq xo'jaligida foydalanish lozim.

Shuvoq

O'zbekiston florasida shuvoqlarning 39 ta turi mavjud. Shuvoqlar muraqqabguldoshlar oilasiga kiruvchi, bo'yi 100 sm bo'lgan ko'p yillik, yarimbuta va buta shaklidagi o'simlikdir. Shuvoqlar cho'llarda, adirlarda hamda tog' oldi qismlarida ko'plab uchraydi. Shuvoqlar iyun, sentyabr oylarida gullab, urug'lari

iyul, noyabrda pishadi. Shuvoqlar respublikamizda 15 million gektar maydonda o'stiriladi. Bu esa chorva mollari uchun kuz va qishda eng yaxshi o'tloqzorlardir. Ularning hamma turlari deyarlik efir moylarini o'zida saqlaydi. Shuvoqning ayrim turlarida efir moylari bilan bir qatorda glyukozidlar, alkaloidlar va santoninlar bo'ladi. Ba'zi shuvoq turlaridan olingan efir moylari likyor, aroq, vermut hamda absentlar ishlab chiqarishda, shuningdek, medistinada ba'zi bir kasalliklarni davolashda ishlatiladi. N. X. Maqsudov supurgi shuvoq yoki qizilburgan turidan artemizol moddasini ajratib oldi. Bu modda buyrak va siydik yo'lidagi toshlarni operastiyasiz tushirishga xizmat qiladi.

O'simliklardagi efir moylarining miqdori ularning o'sish sharoitiga, rivojlanish davriga hamda turlariga qarab 0,05—1,1 prostentgacha bo'ladi. Efir moylari ochsariq, to'q jigarrangli, o'tkir hidli bo'ladi. Shuvoqning (qizilburgan) turidan sanoatda foydalaniladi.

Avrug

Avrug sigirquyruqdoshlar oilasiga kiruvchi bo'yi 50—140 sm bo'lgan, tik o'sadigan yarimbuta o'simlikdir. Uzbekistonda avruglarning 2 ta turi mavjud. Ular toshli erlarda, qurib qolgan soy sohillarida, adirlarda, tog' etaklarida va tog'ning o'rta mintaqalarida dengiz sathidan 500—1800 m balandliklarda to'p-to'p bo'lib, uncha katta bo'lmagan maydonlarda o'sadi. Avrug iyun, iyulda gullaydi; iyun, avgustda esa uning urug'lari pishadi.

Avrugning yashil qismlari va to'pgullari efir moylariga juda boydir. Undan olingan efir moylaridan turli xil xushbo'y hidli sovunlar hamda atirlar ishlab chiqariladi. Avrugda efir moylarining eng ko'p bo'lgan davri shonalash va gullash davriga to'g'ri keladi. Bu vaqtda uning bargi va to'pgullaridagi efir moylarining miqdori 1,14—2,3 prostentga etadi. Ular sariq, jigarrangli, o'tkir hidli, achitish xossasiga ega. Efir moyining asosini kamfen, stineol, aromadendren tashkil etadi.

S. N. Kudryashev Zarkent rayonining atroflarida o'suvchi avruglar gullagan vaqtida undagi efir moylariining miqdori 0,41 prosent bo'lganligini aniqlagan. S. M. Strepkovning bergan ma'lumotlariga qaraganda Omonquton qishlog'i atrofidagi avrugzorlarning har gektaridan 24 kg efir moylarini olish mumkin. M. I. Chij hisobiga ko'ra Omonqo'ton, Ohalikdagi avrugzorlarning har gektaridan 1875 kg avrug massasini yig'ishtirsa bo'lar ekan.

Avrugzorlarning sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan tabiiy boyliklari Toshkent oblastining togli rayonlarida hamda Farg'ona vodiysida juda ko'pdir. Avruglardan parfyumeriya-kosmetik mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalanilsa bo'ladi.

Ko'kat

Ko'kat labguldoshlar oilasiga kiruvchi bo'yi 20— 50 (70) sm tik o'sadigan yarimbo'ta o'simlikdir. U respublikamiz tog'li rayonlarining tog' yon bag'irlaridagi toshli, quruq erlardan tortib tog'ning o'rta minta- qalarigacha keng tarqalgai. Ko'kat iyul, avgust oylarida gullaydi, avgust, sentyabr oylarida esa urug'i pishadi.

Ko'kat barglari hamda barra novdalari ziravor o'simlik sifatida turli xil taomlarga solinadi. Sanoatda hamda vino, likyor ishlab chiqarishda ishlatilsa yaxshi natijalar beradi. Xalq medistinasida ishtahani ochuvchi va organizmning harakatchanligini oshiruvchi dori-darmon sifatida ishlatiladi. Ko'katdan revmatizm, astma (nafas qisish), ichak, oshqozon, sariq suv kasalliklarini davolashda hamda gijjani tushirishda ishlatiladigan dorilar hamda parfyumeriya-kosmetik mahsulotlar tayyorlanadi.

Ko'kat efir moyli o'simliklardan bo'lib, Vengriyada undan efir moylarini ajratib olish yaxshi yo'lga qo'yilgan. O'simlikning er ustki qismlari quritilganda 0,3—0,9 prosent efir moylarini saqlaydi. I. S. Sharigina Leningrad oblastida o'stirilgan ko'kat gullash davrida 0,88—1,17 prosent efir moylarini saqlashipi aniqlagan.

O'zbekistonda tabiiy o'sayotgan ko'kat gullash davrida uning barg va poyalarida 0,4—0,76 prosent efir moylari bo'ladi. Efir moylari yashil yoki yashilsimon sariq raigli, xushbo'y hidlidir. O'ning tarkibini aldegid, karvon, pinokamfon, apinen hamda uksus (sirka) kislotalari tashkil etadi.

O'zbekistondagi ko'katzorlarning har bir gektar maydonidan 170 kg o'simlik massasini yig'ishtirib olish mumkin. Ko'kat zapaslari sanoat ahamiyatiga ega emas. U juda osonlik bilan urug'dan ko'payadi. Shu sababli bu qimmatbaho xom ashyo o'simligini tog'yon bag'irlarida ko'paytirish lozim.

Dastarbosh

Dastarbosh murakkabguldoshlar oilasiga kiruvchi bo'yi 50—100 (130) sm keladigan ko'p yillik o'simlikdir. Respublikamizda uning 2 ta turi va bir qancha formalari bor. Bu o'simlik daryo qirg'oqlarida, ariq bo'ylarida, nam va salqin joylarda, daraxt taglarida uchraydi. Dastarbosh tog'ning o'rta mintaqasigacha keng tarqalgan.

AQShning Indiana shtatida dastarboshning bargi juda qadrlanadi. Uning bargi korista va muskat yong'og'ining o'rnini bosadi. Dastarbosh go'shtli konserva va likyorlarga xushbo'y hid berishda ishlatiladi. GFR da u gijjaga qarshi va turli xil ichak kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Belgiya va Fnnlandiyada dastarboshdan xalqasimon gijjaga qarshi dori-darmon tayyorlanadi. Dastarbosh medistinada gijjani tushirishda, zotiljom va bosh og'rig'i kasalliklarini davolashda, hashoratlarga qarshi kurashishda qo'llaniladi. Dastarbosh o'zida efir moylarini saqlaydi. Undagi efir moylari o'sish sharoitiga va rivojlanish davriga hamda formalariga qarab o'zgarib turadi. GDRda tarqalgan dastarboshlarning bargi va to'pgul savatchalarida 0,2—0,7 prosent efir moylari bo'ladi.

Qozog'iston territoriyasida tarqalgan dastarboshning er ustki qismi gullab turgan savatchasi bilan birgalikda 0,01—0,03 prosent efir moyini saqlaydi. Samarqand atrofida uchraydigan dastarboshlarda 0,06 prosent, Hisor tog'larida o'sayotganlarida 0,03 prosent efir moylari bo'ladi.

Farg`ona vodiysidagi Ko`ktosh soyidan terilgan dastarboshlarning bargida 0,02—0,05 prostent, gullab turgan savatchalarida 0,1—0,4 prostent efir moylari borligi aniqlandi. Madaniy sharoitda o`stirilgan dastarboshlardagi efir moylari miqdori 0,4—0,54 prostentga etadi. Efir moylari sariq, yashil-sariqsimon rangli, o`tkir hidlidir. Uning asosini borneol, tuyon, tanasteton, tanastetin achchiq moddasi, tanasteto oshlov kislotasi, alkaloidlar, flovonoidlar va organik kislotalar tashkil etadi. Bu o`simlikdan parfyumeriya mahsulotlari, hidli suvlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Dastarbosh o`simligi urug`idan ko`payadi.

Yovvoyi sabzi

Yovvoyi sabzi soyabonguldoshlar oilasidan bo`lib, balandligi 150 sm keladigan ikki yillik o`simlikdir. O`zbekistonda yovvoyi sabzilarning 3 ta turi uchraydi. Ular daryo va ariq bo`ylarida, bog`larda, adirlarda, tog` oldi qismlarida o`sadi. Evvoyi sabzi may, iyunda gullaydi, iyulda esa uning urug`lari pishadi.

Evvoyi sabzi urug`i turli mamlakatlarda har xil dori-darmon sifatida ishlatiladi. Misrda buyrakdagi toshlarni tushirishda, Amerika, Evropa va Osiyo mamlakatlarida esa hayz ko`rishni qo`zg`atuvchi dori sifatida foydalaniladi. MDHda uning urug`idan gijjaga qarshi va surgı sifatida ishlatiladigan dorilar tayyorlanadi, yovvoyi sabzi urug`idan foydalangan holda rak kasalini davolash ustida ish olib borilmoqda, yovvoyi sabzi urug`i siydik haydash xossasiga ham ega. Bu o`simlikni ziravor sifatida ishlatga ham bo`ladi. O`simlikning urug`i va ildizi xushbo`y hidli bo`lgani uchun baliqli, go`shtli taomlar tayyorlashda, marinad va aroq likyor ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Parfyumeriya sanoatida yovvoyi sabzilardan olingan efir moylarini boshqa o`simliklardan olingan efir moylariga aralashtirib «buket» qilib ishlatilga, xushbo`y hidli parfyumeriya mahsulotlarini ishlab chiqarish mumkin.

E. N. Balkova Dnepropetrovskiy oblastida keng tarqalgan yovvoyi sabzi urug`ida 2,3 prostent efir moylari borligini aniqladi. Moldaviyada tarqalgan yovvoyn sabzilarning urug`ida 7,59 prostent efir moylari bo`ladi . G. V

Pigulevskiy va V. I. Kovaleva (1961)lar Toshkent oblasti atroflarida o'suvchi o'simliklarning urug'ida 1,92 prostent efir moylari borligini aniqladilar.

Yovvoyi sabzi Moldaviyada madaniy sharoitda o'stirilganida uning urug'ida 4,28 prostent efir moylari saqlangan. Markaziy Hisorning Pastlangar qishlog'ida o'saetgan evvoyi sabzilarning er ustki qismlari gullash davrida 0,012 prostent, Talas vohasida uchraydiganlari 0,13 prostent efir moylarini saqlaydi. G'avatsoy daryosining atroflarida keng tarqalgan yovvoyi sabzilar gullash davrida er ustki qismlarida 0,06—0,18 prostent efir moylari bo'ladi.

Efir moylari xushbo'y hidli, yashilsimon, ochyashil rangli bo'lib, ularning tarkibini geraniol, nopinen, sabinen, azaron, daukol tashkil etadi. Evvoyi sabzi urug'ida 18 prostent yog` va 21 prostent protein bor.

Qo'ng'ir zira

Qo'ng'ir zira soyabonguldoshlar oilasiga kiruvchi bo'yi 25—60 sm keladigan bir yillik o't o'simlikdir. U ariq bo'ylarida, daryo qirg'oqlarida, zax erlarda, tog'olda qismlarida keng tarhalgan. Qo'ng'ir zira iyun, iyulda gullaydi, urug'i esa iyul, avgustda pishadi. Me- distinada undan balg'am ko'chiruvchi dori sifatida hamda boshqa har xil dorilarga xushbo'y hid va ta'm berishda foydalaniladi.

Mahalliy xalqlar qo'ng'ir zira urug'larini ziravor sifatida taomlarga ishlatadilar. O'simlik o'zining barcha qismlarida efir moylarini saqlaydi. Uning ildizida 0,02—0,07 prostent, urug'ida esa 1,6—3 prostent efir moylari bo'ladi.

Mashalang soyida dengiz sathidap 1550 m balandlikda o'suvchi qo'ng'ir zira urug'lash davrida uning er ustki qismlari 0,71 prostent, urug'i 1,22—2,4 prostent efir moylarini saqlaydi. Efir moyi ochiq havoda tez oksidlanib ochsariq rangga aylanadi. Efir moylari xushbo'y hidli, shirin tamli bo'lib achitish xossasiga ega emas. Uning tarkibini anetol tashkil etadi. O'simlik urug'ida smola, kraxmal, shakar mod- dalari, shuningdek, 22 prostent yog` bo'ladi. Qo'ng'ir ziradan vino, likyor ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Zira

Zira soyabonguldoshlar oilasiga kiruvchi, bo'yi 41 — 100 sm bo'ladigan ko'p yillik o'g o'simlikdir. U respublikamizning Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent va Farg'ona oblastlaridagi adir va tog` yon bag`irlarida dengiz sathidan 700—2000 m balandlikda uchraydi.

O'rta Osiyo va Sharq xalqlari zirani juda qadim zamonlardan beri sevib iste'mol qiladilar. Uni palov, shovla, qovurdoq, kabob va boshqa taomlarni pishirishda, qazini tayyorlashda ishlatadilar. Ziradan go'shtli va baliqli koiservalar, turli xil kolbasalar ishlab chiqarishda ham foydalaniladi.

Butun dunyoga mashhur bo'lgan Abu Ali ibn Sino ziradan oshqozon va ichak, jigar hamda snydik yo'llari kasalliklarini davolash uchun dori-darmonlar tayyorlagan. Biz iste'mol qiladigan zira yovvoyi holda o'sadigan zira o'simligidan yig'ib olinadi. O'zbekistonda ziraning tabiiy boyliklari ko'p. A. R. Akramovning dastlabki bergan ma'lumotlariga qaraganda zirazorlarning umumiy maydoni 8200 gektar bo'lib, ulardan 30,3 tonna zira urug'i yig'ib olish mumkin. Ularni o'sish sharoitlariga qarab iyul, avgust oylarida yig'ishtirib olinadi. Zira urug'ining xushbo'yligi uning tarkibidagi efir moylariga bog'liqdir.

M. I. Goryaev zira urug'ida efir moylarining miqdori 2,75—3 prostent bo'lishini aniqlagan. Tekshirishlar natijasida shu narsa aniqlandiki, tabiiy ziraning urug'ida 0,74—3 prostent, barglarida 0,12 prostent, madaniylashtirilgan ziraning urug'ida 4—4,2 prostent efir moylari bo'ladi. U to'qsariq, qizilsimon rangli, xushbo'y hidlidir. Tegishli tashkilotlar zira o'simligiga katta ahamiyat berishlari hamda ulardan oziq-ovqat sanoatida foydalanishlari zarur.

Qora ziravor

Qora ziravor ikki yillik o'simlik bo'lib, balandligi 40—80 sm. Bu o'simlik soyabonguldoshlar oilasiga mansub. Qora ziravor respublikamizning ko'pgina

tog'li rayonlarining daryo qirg'oqlarida, ariq atroflarida, o'rmon zonalarida keng tarqalgandir. Qora zira iyunda gullab, iyulda uning urug'i pishadi.

Qora ziravor ziravor o'simliklardan bo'lib, undan konfet, kolbasa, aroq, likyor ishlab chiqarishda foydalansa bo'ladi. Qora zira turli xil konservalar tayyorlashda, bodring pomidor, karam tuzlashda ishlatiladi. AQSh, Daniya, Norvegiya, Vengriya uning barg va poyalarini ziravor sifatida salatlarga, taomlarga solinadi, pishirilgan olma hamda qaynatilgan lavlagilarga qo'shib iste'mol qilinadi.

Xalq medistinasida qora zira urug'idan ichak va oshqozon kasallarini davolashda, farmastevtikada esa uning urug'idan har xil dori-darmonlarga yoqimli hid berishda va surgu sifatida ishlatiladi. Bulardan tashqari qora zira eng yaxshi efir moyli o'simliklar qatoriga kiradi. Shu sababli ham uni AQSh, Angliya, Gollandiya, Daniya, Norvegiya, Polsha, Vengriya hamda SSSRda ko'plab zkadilar.

Qora ziravor urug'idagi efir moylarining miqdori o'sish sharoitlariga va navlariga qarab o'zgarib turadi. Uning urug'ida 2—7 prostent efir moylari, 12—18 prostent yog', 10—12 prostent oqsil, 3 prostent shakar, oshlov moddalari, mineral tuzlar va 20—23 prostent protein bor. Efir moylarining asosini karvon, karvakrol va limonen tashkil etadi. Efir moylaridan parfyumeriya — kosmetik tovarlar ishlab chiqarishda va sovunlar tayyorlashda foydalaniladi.

Respublikamizda qora ziraning zapaslari juda kam. U urug'idan osonlik bilan ko'payadi. Shu sababli uni tog'ning o'rta mintaqalarida ko'laytirsan yaxshi natijalar beradi.

Andiz

Andiz murakkabdoshlar oilasiga mansub bo'lib, balandligi 175 sm, tik o'suvchi ko'p yillik o'simlikdir. Floramizda andizlarning 9 ta turi mavjud. Ular O'zbekistonning bo'z tuproqli erlarida keng tarqalgan. Andiz iyun, iyul oylarida gullab, iyul, avgustda uning urug'i pishadi.

Andstzdan faqat O'rta Osiyo xalqlarigina emas, balki evropaliklar ham juda qadim zamonlardan buyon turli maqsadlar uchun foydalanib kelganlar. O'rta asrda andiz ildizidan tayyorlangan sharbatdan xalq tibbiyotida «Muqrddas Pavlo ichimligi» nomi bilan oshqozon, ko'krak, bosh og'riq kabi kasalliklarni davolaganlar. Abu Ali Ibn Sino o'simlikning ildizva barglaridan radikulit, bo'g'in og'riqlari va et uzilish kabi kasalliklarni davolashda keng foydalangan.

Hozirgi paytda xalq medistinasida andiz ildizidan tayyorlangan poroshok va sharbatlardan qichima, zkhema, gemarroy, sil kasalliklarini davolashda va balg'am ko'chiruvchi, siydik haydovchi, haroratni pasaytiruvchi, gijjani tushiruvchi dori-darmon sifatida foydalaniladi. Uning bargi esa yaralarni davolashda ishlatiladi. Ilmiy medistinada uning ildizidan tayyorlangan preparatni oshqozon va yo'gon ichak jarohatlarini davolashda foydalanib kelinmoqda. Ba'zi bir ma'lumotlarga ko'ra o'simlik tarkibidagi gelenin moddasi sil bastillasining tarqalishiga yo'l qo'ymaydi.

Mahalliy xalqlar andiz ildizidan gazmollarni bo'yashda foydalanganlar. Bundan tashqari u juda manzarali va nektarga boy bo'lgan o'simlik ham hisoblanadi. Andiz ildizi va ildiz poyalarining tarkibida 44 prostent inulnn, 6 prostent oshlovchi modda, 3 prostent efir moylari, oz mihdorda alkaloid, saponin moddalari, vitamin S, organik kislota va mineral tuzlar bor. Barglarida esa alantopikrin deb ataluvchi achchiq modda bor.

Andizning er ustki qismi gullash davrida 1—2 prostent, ildizi 3 prostentgacha efir moylarini saqlaydi. Efir moylari yog'simon, qattiq shaklda bo'lib $+30^{\circ}$, $+45^{\circ}$ da suyuqlanadi. Bu o'simlikning foydali xususiyatlarini e'tiborga olgan holda xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida undan foydalanishni yaxshi yo'lga solish lozim.

Choyut

Choyut (sariqchoy) choyo'tdoshlar oilasidan bo'lib, balandligi 20—80 sm bo'lgan ko'p yillik o't o'simlikdir. Uning O'zbekiston florasida 3 ta turi mavjud.

Ular respublikamiz oblastlarining adir zonasidan tortib to tog`ning o`rta mintaqasigacha tarqalgan. Choyo`t o`sish sharoitiga qarab may, avgust oylarida gullaydi iyul, sentyabrda esa uning urug`i pishadi.

Hozirgi vaqtda medistinada choyo`tning er ustki qismlaridan tayyorlangan preparatlar, sharbatlar va ulardan olingan efir moylari shamollash, yo`tal, jigar, qon aralash ich ketish kasalliklarini davolashda ishlatib kelinmoqda. Choyo`t sharbatidan ragan va mir preparatlari bilan birgalikda tish milklarining jarohatlarini tuzatishda hamda og`iz bo`shlig`idagi qo`lansa hidni yo`qotishda foydalanilmoqda. Choyo`tdan oqsilli preparat giptalbin hamda antibiotik imanin tayyorlanadi. Choyo`tning barg va barra navdalaridan oziq-ovqat sanoatida, ayniqsa, go`sht va baliq konservalarini tayyorlashda, aroq — likyor ishlab chiqarishda keng foydalanilmoqda. Bu sohada MDH Fanlar akademiyasi Botanika institutining ilmiy xodimlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar yaxshi yo`lga qo`yilgan. Ular bu o`simlikni Leningrad oblasti sharoitida madaniylashgirish ustida ishlab, undan aroq, likyor ishlab chiqarishda foydalanmoqdalar.

Choyo`tning tarkibi turli xil kimyoviy moddalarga boydir. Chunonchi, 13 prostentgacha oshlov, 14 prostentgacha smola, 12 prostentgacha shakar moddalari, vitamin S, karotin, antastion, organik kislotalar hamda 0,2— 0,25 prostent efir moylari bor.

M. I. Goryaev Qozog`istonda o`suvchi choyo`tning er ustki qismlari 0,09— 0,4 prostent efir moylarni saqlashini va ularning tarkibini sapinen (nitrozoxlorid, nitroloperid, valerian kislota), stignol, aromadendren kabi moddalar tashkil etishini aniqlagan.

Samarqand atrofida tarqalgan choyo`t gullash davrida 0,07—0,1 prostent efir moylarini saqlaydi. Janubiy Qirg`izistonning Ko`garat vodiysida uchraydigan choyo`tning er ustki qismida gullash davrida 0,08 prostent efir moylari bo`ladi. Olib borgan ilmiy tekshirishlar natijasida Shohimardon atroflarida o`sayotgan choyo`tning barg va barra novdalari shonalash davrida 0,05—0,17 prostentgacha efir moylarini saqlashi aniqlandi. Ularning asosiy miqdori dastlabki 30—40

minutdayoq ajralib chiqadi. Ular to'qqo'ng'ir yoki qizilsimon rangli bo'lib, xushbo'y hidlidir. Choyo't urug'idan hamda ildiz bo'laklaridan ko'paytiriladi.

Shashir

Shashir soyabonguldoshlar oilasiga kiruvchi, bo'yi 150—200 sm bo'lgan ko'p yillik o'simliklardan hisoblanadi. Respublikamiz florasida uning 8 ta turi uchraydi. Ular adirlarda, tog'ning yuqori mintaqalari- dagi qoratuproqli erlarda shashirzorlarni hosil qiladi. Ularning tabiiy boyliklari ko'p. Shashir may, iyun oylarida gullaydi, iyul va avgustda esa uning urug'i pishadi.

Shashir chorva mollari uchun yaxshi ozuqa o'simlik hisoblanadi. Mahalliy xalqlar uni er ustki qismlaridan qishga xashak tayyorlaydilar. O'simlik a'zolari organik va mineral moddalarga boy. Uning bargida 9 prosent protein, 4,5 prosent yog', 56,7 prosent azotsiz ekstrakt moddalar hamda efir moylari bor. Undagi efir moylarining miqdori shashirning o'sish sharoitiga, rivojlanish davriga qarab o'zgarib turadi.

Markaziy Hisor tog'ining Qoratog' qishlog'ida tarqalgan shashirlar gullash davrida 0,19 prosent va ildizida 0,017 prosent, Omonqo'ton qishlog'iga yaqin joyda o'suvchi shashirlar esa gullash davrida 0,27 prosent efir moylarini saqlaydi. Efir moylari ochsariq rangli bo'lib, asta-sekinlik bilan rangini o'zgartiradi va ochyashil rangga aylanadi. U juda o'tkir hidlidir.

Shashirdan olingan efir moylarini boshqa o'simliklardan olingan efir moylari bilan aralashtirib «buket» sifatida parfyumeriya sanoatida ishlatish mumkin.

Boldirg'on

Boldirg'on soyanguldoshlar oilasiga mansub bo'lgan va bo'yi 100—200 (250) sm keladigan ko'p yillik o'simlik bo'lib, Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Farg'ona oblastlarining tog' yon bag'irlaridagi nam erlarda ko'plab uchraydi. Boldirg'on iyunda gullab, iyulda urug'i pishadi. Boldirg'onning barglarini ayrim chorva mollari iste'mol qiladilar. Uning ildiz va


barglaridagi glyukozid hamda furokumarin (bergapten, ksantatoksin)dan tayslangan dori-darmonlar medistinada keng ishlatiladi. Boldirg'on o'simligidan parfyumeriya sanoatida ishlatiladigan efir moylari olinadi. Uning tarkibini anetol moddasi tashkil etadi.

O'simlikning yashil barglarida 0,25—0,4 prostent, barg va barg bandlarida 0,2—0,3 prostent, urug'larida 1,8 prostent efir moylari, karotin moddasi hamda chumoli kislotasi bor.

Alqoro'ti

Alqoro'ti soyabonguldoshlar oilasiga mansub bo'lgan ko'p yillik o'simlikdir. Uning bo'yi 100—150 sm ga etadi. U iyun, iyul oylarida gullab, avgust, sentyabr oylarida urug' beradi.

Alqoro'ti respublikamizning Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo oblastlarining tog'li rayonlaridagi tog' yon bag'irlaridagi shag'al toshli erlarda ko'p uchraydi. Mahalliy aholi alqoro'tini juda qadim zamonlardan buyon ziravor o'simlik sifatida iste'mol qilib kelmoqdalar. Alqoro'ti turli oziq-ovqatlarni tayyorlashda ishlatilishidan tashqari sutli va moyli taomlarni 1—3 hafta mobaynida achib ketishiga yo'l qo'ymaydi va xushxo'r qiladi. Shuningdek, alqoro'tining barglaridan qattiq, sariyog', pishloq va chalop tayyorlashda hamda bodring, pomidor, karam va tarvuzni tuzlashda foydalaniladi. O'simlikning er ustki qismlari vitaminlarga, organik moddalarga, mineral tuzlarga hamda efir moylariga juda boydir. Undan oziq-ovqat saioatida, go'shtli konservalar hamda turli xil kolbasalar ishlab chiqarishda foydalanish mumkin, U asosan urug'idan ko'payadi. Alqoro'tining foydali xususiyatlarini e'tiborga olib, ilmiy-tadqiqot ishlarini keng olib borish kerak. Uning bargida 12 prostent protein, 4,5 prostent yog', 35,7 prostent azotsiz ekstrakt moddalar hamda efir moylari bor. Undagi efir moylarining miqdori alqoro'tining o'sish sharoitiga, rivojlanish davriga qarab o'zgarib turadi.



8-rasm. Alqoro'ti.

Ermon

Ermon (Sassiq alaf) murakkabguldoshlar oilasiga kiruvchi, bo'yi 60—150 sm keladigan bir yillik o'simlikdir. Ermon tog'ning o'rta mintaqalarigacha bo'lgan joylarda ko'p uchraydi. Lekin u yaxlit ermonzorlarni hosil qilmaydi. Ermon may oyidan gullay boshlaydi va sentyabrga borib uning urug'i pishadi.

Ermon barglari va barra novdalarini ziravor sifatida iste'mol qilish mumkin. Quritilgan barg va novdalaridan esa vermut, likyor ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Xalq medistinasida ermon sharbagidan ichakda to'plangan gazlarni haydab chiqarishda hamda ishtahani ochadigan dori-darmon sifatida qo'llaniladi. Medistinada uning bargi va tupgulidan tayyorlangan sharbat hamda ekstraktidan oshqozon hazm qilish a'zolarining ishini yaxshilovchi va ishtahani ochuvchi dori tariqasida ishlatiladi. Ermonning er ustki qismlarida 0,5—2 prosent efir moylari, oqsil, glyukozid, absintin, smola, vitamin S, olma va yantar kislotasi, mineral tuzlar, oshlovchi hamda arteminzetin moddalari bor.

Ermon efir moylarining asosini fellandren, pinen, terpen — alkogoltuyol va ketontuyon tashkil qiladi. Farg`ona vodiysida o'suvchi ermonning barg va gulida 0,84 prosent efir moylari bo'ladi. U o'tkir hidli, ko'kyashil yoki to'qyashil bo'lib suvdan ajratib olish qiyin.

Biz xalq xo'jaligining turli tarmoqlari uchun asosiy xom ashyo manbai hisoblangan Farg`ona vodiysining asosiy efir moyli o'simliklarning turlari haqidagi ma'lumotlarni keltirdik, xolos. Respublikamiz sanoat tarmoqlarida efir moyli o'simliklardan foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilmagani. Ulardan yangidan yangi parfyumeriya mahsulotlari hamda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalanish lozim.

Burgan

Burgan (*Artemisia annua*) - Qoqio'tdoshlar oilasiga mansub.

O'zbekistonning hamma viloyatlaridagi to'qaylarda, ariq bo'ylarida, tog'larda, dalalarda, yalangliklarda, qishloqlar atrofida va tog'larning yon bag'irlarida o'sadi.

Burgan bir yillik, bo'yi 30-100 sm gacha etadigan o't o'simlik. Poyasi tik o'sadi, yashil yoki qizg'ish rangli, yuqori qismi shoxlangan. Bargi oddiy, poyaning pastki qismilaridagilari uzun bandli, 2-3 marta patsimon ajralgan, o'rta qismidagilari kalta bandli, 2 marta patsimon ajralgan, yuqori qismidagilari bandsiz, poyada ketma — ket joylashgan. Savatchada to'plangan gullari shoxlarida ro'vaksimon gulto'plamni tashkil etadi. Mevasi — jigar rang pista. Iyul oyida gullaydi, mevasi oktyabrda pishadi.

O'simlik gullaganda poyasining yuqori qismi o'rab olinadi va soya erda quritiladi. Bargining er ustki qismi tarkibida efir moyi, alkaloidlar, vitamin S va K, smola, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Xalq tabobatida o'simlikning er ustki qismida tayyorlangan qaynatma yuqumli ichak kasalliklarini davolashda hamda ishtaHa ochadigan dori sifatida ishlatiladi. Quritilmagan barg shirasi va quritilgan barg poroshogidan tayyorlangan surma dori qo'tirga, teridan yiringli yaralarga va boshqa teri kasalliklariga shifo bo'ladi.

Burgan o'simligi gijja haydovchi ta'sirga ega ekanligi tajribada aniqlandi. Shuning uchun ham uni ilmiy tibbiyotda gijja haydovchi dori sifatida ishlatish tavsiya etiladi.

Ittikanak

Ittikanak (qoraqiz) - Qoqio'tdoshlar oilasiga mansub. O'zbekistonning deyarli hamma viloyatlarida uchraydi. U nam o'tloqlarda, ariq, daryo bo'ylarida, ko'l yoqalarida, sholizorlarda, begona o't sifatida ekinlar orasida va boshqa erlarda uchraydi.

Ittikanak bir yillik, bo'yi 20-80 sm gacha etadigan o't o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, tuksiz yoki sariq tukli, asos qismidan boshlab qarama-qarshi o'rnamshgan. Gullari xira sariq rangli bo'lib, savatchaga to'plangan. Mevasi-cho'ziq teskari tuxumsimon, tikonli, to'rt qirrali pista.

Iyun-iyul oylarida gullaydi, mevasi avgustda pishadi. Ittikanak gullashi oldidan va qisman gullash davrida poyasining yuqori qismio'roq bilan o'rib olinadi yoki yirik barglari qo'l bilan teriladi, so'ngra salqin erda quritiladi.

O'simlik tarkibida karatin, vitamin S, flavonoidlar, kumarinlar, polifenollar, polisaxaridlar, **efir moyi**, oz miqdorda alkaloidlar, oshlovchi, shilliq, achchiq va boshqa moddalar bor.

Xalq tabobatida o'simlikning er ustki qismidan tayyorlangan damlama yoki qaynatma shirincha va rak kasalligining ba'zi turlarini davolashda hamda ishtaHa ochuvchi, qon oqishini to'xtatuvchi, siydik haydovchi va terlatuvchi dori sifatida ko'llaniladi. Shuningdek, o'simlikdan tayyorlangan qaynatma ba'zi teri kasalliklari (gush, qutur) hamda bolalarning diatez kasalliklarida qo'llaniladigan shifobaxsh vannalar tayyorlashda ishlatiladi.

Ilmiy tibbiyotda ittikanak o'simligi preparatlari (damlama, nastoyka) buyrak va siydik yo'llari kasalliklarida siydik haydovchi va shamollashda terlatuvchi hamda ovqat hazm qilishni yaxshilovchi dori sifatida ishlatiladi. Ittikanak o'simligining er ustki qismi shirincha kasalligida qo'llaniladigan choy –

yig`malar tarkibiga kiradi. Ittikanak nastoykasi umumiy tinchlantiruvchi hamda qon bosimi pasaytiruvchi ta'siriga ega ekanligi tajribada aniqlangan.

Kelintili toron

Kelintili toron (*Persicaria maculata*) - Torondoshlar oilasiga mansub. U Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida ariq bo'ylarida daryo qirg'oqlarida, bog'larda hamda sug'oriladigan erlarda o'sadi.

Kelintili bir yillik, bo'yi 20-80 sm ga etadigan o't o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, bo'g'inli, stilindrsimon, pastki qismi ko'tariluvchi va shoxlangan. Bargi lanstetsimonyoki chiziqsimon-lanstitsimon, pastki barglari poyada kalta bandi bilan, qolganlari esa bandsiz ketma-ket o'rnamashgan. Barglarining yuqori tomonida qo'ng'ir rangli dog'lari bor. Gullari, poya va shoxlari uchida shingilga to'plangan. Mevasi – qora rangli, tuxumsimon yong'oqcha.

Iyun – oktyabr oylarida gullaydi va mevasi pishadi. O'simlik gullaganida er ustki qismi o'rab olinadi va salqin erda quritiladi. Kelintili tarkibida flavonoidlar (gperozid, avakulyarin va boshqalar) vitamin S, K, **efir moyi**, organik kislotalar, qandlar, oshlovchi, shilliq va boshqa moddalar bor.

Xalq tabobatida o'simlikdan tayyorlangan qaynatma bavoil kasalligida hamda siydik haydovchi dori sifatida ishlatiladi. Shuningdek, qaynatma bilan temratki, teriga toshgan toshmalar va yaralar yuviladi.

Ilmiy tibbiyotda o'simlikning dorivor preparadlari (damlama va suyuq ekstrakt) qabziyatda engil surgi hamda qon ketishini (bachadondan va bavoil kasalligida) to'xtatuvchi dori sifatida qo'llaniladi.

Lamium

Lamium (oq lamium) - Labguldoshlar oilasiga mansub. U Toshkent va Surxandaryo viloyatlaridagi tog'li nohiyalarda uchraydi. U asosan tog'larning o'rta qismigacha joylashgan nam tog'oralig'larida o'sadi.

Lamium ko'p yillik, bo'yi 25-70 sm gacha etadigan o't o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, to'rt qirrali bo'ladi. Bargi tuxumsimon, o'tir uchli, mayda va yirik

arrasimon qirrali bo'lib, bandi bilan (poyaning yuqori qismidagilari bandsiz) poyada qarama-qarshi o'rnashgan. Oq rangli gullari poyaning yuqori qismida barglar qo'ltig'ida halqasimon to'pgullini hosil qiladi. Mevasi – teskari tuxumsimon, uch qirrali to'rtta yong'oqcha.

Iyul oyida gullaydi, avgustda mevasi pishadi. O'simlik gullaganda er ustki qismi o'rab olinadi yoki bargi va gulli alohida-alohida yig'iladi. Yig'ilgan o'simlik qismlari soya erda quritiladi. O'simlik tarkibida **efir moyi**, vitamin S, alkaloidlar, saponinlar, flavonoidlar, karotin, shilliq va boshqa moddalar bor.

Xalq tabobatida lamium gullidan tayyorlangan dorivor preparadlar (qaynatma, damlama, nastoyka va poroshok) nafas yo'llari shilliq qavati yallig'langanda, taloq, qovuq, va siydik yo'llari, buyrak, bachadon, ichak, bezgak, sariq va bazi teri kasalliklarida, uyqusizlikda ishlatiladi. Bulardan tashqari, yana qon oqishlari (o'pkada, bachadonda, bavesil kasalligida) to'xtatuvchi va balg'am ko'chiruvchi dori sifatida Ham qo'llaniladi.

Lamium bargidan tayyorlangan qaynatma qon aralash ich ketganda, er ustki qismidan, tayyorlangan damlama esa siydik haydovchi dori sifatida qo'llaniladi. O'simlikdan damlama tayyorlash uchun og'zi yopiladigan idishga bir stakan qaynab turgan suv quyib, ustidan gulli yoki o'simlikning maydalangan er ustki qismidan bir osh qoshiq solinadi va yarim soat damlab qo'yiladi. So'ngra dokada suziladi. Kuniga 4-5 maha yarim stakandan ichiladi.

Lamium o'simligining er ustki qismidan tayyorlangan nastoyka qon bosimini pasaytiruvchi, qon oqishini to'xtatuvchi va bachadon muskullari tonusini oshiruvchi ta'sirga ega ekanligi aniqlandi. Shuning uchun ham, lamium nastoykasini ilmiy tibbiyotda akusherlik-ginekologik amaliyotida ishlatish tavsiya etilgan.

Olabuta

Olabuta (sho'ra) ning xalq tabobatida quyidagi turlari ishlatiladi: **Xushbo'y olabuta** (*Chenopodium botrys* L.), **oq sho'ra** (*Chenopodium album* L.), **sassiq olabuta** (*Ch. vulvaria* L.).

Xushbo'y olabuta - Toshkent, Namangan, Farg'ona, Samarqand, Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlardagi adirlarda, tog' etaklaridagi toshloq erlarda, yo'l yoqalarida, dalalarda, tashlandiq joylarda, aholi yashaydigan erlarda o'sadi.

Xo'shbo'y olabuta sarg'ich-yashil rangli, hidi yoqimli, bir yillik, bo'yi 15-60 sm gacha etadigan o't o'simlik. Poyasi shoxlangan va bezli turlari bilan qoplangan bo'ladi. Bargi cho'ziq, patsimon bo'lakli, poyada bandi bilan ketma-ket joylashgan. Gullari shingilsimon to'pgulni Hosil qiladi. Mevasi – yong'oqcha.

Iyul – avgust oylarida gullaydi va mevasi pishadi. O'simlik gullaganida er ustki qismi o'rab olinadi va soya erda quritiladi. Xo'shbo'y olabutaning er ustki qismi tarkibida alkaloidlar, **efir moyi**, vitamin S, karatin va fitonstidlar bor.

Xalq tiabobatida o'simlikning er ustki qismidan tayyorlangan qaynatma yoki damlama me'da, bosh og'riq (migren), nafas qisishi (astma) va shamollash kasalliklarida hamda el haydovchi dori sifatida ishlatiladi.

Oq olabuta O'zbekistonning deyarli hamma viloyatlarida uchraydi. Bu o'simlik cho'llarda, adirlarda, yo'l yoqalarida, begona o't sifatida ekinlar orasida, aholi yashaydigan erlarda o'sadi.

Oq olabuta bir yillik, bo'yi 10-100 sm gacha etadigan o't o'simlik. O'simlikning er ustki qismi tarkibida xushbo'y olabuta o'simligida uchraydigan moddalar bor.

Xalq tabobatida o'simlikning er ustki qismidan tayyorlangan qaynatma yoki damlama tomoq og'riganda (angina), ich ketganda, qutur va boshqa shu kabi teri (qichima) kasalliklarini davolashda hamda me'da og'riganda og'riq qoldiruvchi dori sifatida ishlatiladi. Oq olabutaning maydalangan er ustki qismiga sigir yog'idan aralashtirib surtma dori tayyorlanadi. Bu dorini qutir, qichima va teriga biror narsa toshganda surtiladi.

Sassiq olabuta Toshkent, Namangan, Farg'ona, Andijon, Samarqand, Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlardagi cho'llarda, adirlarda, tashlandiq erlarda, begona o't sifatida ekinlar orasida o'sadi.

Sassiq olabuta yoqimsiz Hidli, bir yillik, bo'yi 1027 sm gacha etadigan o't o'simlik. O'simlik tarkibida efir moyi, oshlovchi va boshqa birikmalar bor.

Xalq tabobatida o'simlikdan tayyorlangan qaynatma bod, shamollash kasalliklarini davolashda hamda isitmada haroratni tushuruvchi, og'riq qoldiruvchi dori sifatida ishlatiladi.

Otquloq

Jingalak otquloq (*Rumex crispus* L.), dorivor otquloq (*Rumex confertus* Willd.).

Otquloq turlari Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlarida ariq bo'ylarida, tog' yon bag'irlarida, begona o't sifatida ekinzorlarda va boshqa erlarda o'sadi.

Otquloq turlari ko'p yillik, bo'yi 70-120 sm ga etadigan o't o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, bo'g'inli yuqori qismi shohlangan. Ildizoldi to'pbarglari va poyaning pastki qismidagi barglari uzun bandli, uchburchaksimon-tuxumsimon yoki tuxumsimon-lanstetsimon, asos qismi yuraksimon, poyaning yuqori qismidagilari mayda bo'lib, poyada ketma-ket o'rnashgan. Gullari mayda, ruvakka to'plangan. Mevasi – uch qirrali yong'oqcha.

May-iyun oylarida gullaydi va mevasi pishadi. Otquloq turlari gullaganida bargi yig'ib olinadi va soya erda quritiladi. Mevasi pishganda yig'iladi. Ildizini esa kuzda kovlab olinadi, tuproqdan tozalab, suv bilan yuviladi va mayda bo'laklarga bo'lib, ochiq havoda quritiladi.

Otquloq turlari tarkibida vitamin S, K, antraglikozodlar, flavonoidlar (rutin va boshqalar), **efir moyi**, smola, organik kislotalar, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Xalq tabobatida otquloq turlarining ildizidan, bargidan hamda mevasidan tayyorlangan qaynatma yoki damlama ich ketishi, dizenteriya, ichak yaralari va boshqa kasalliklarni davolash uchun ishlatiladi. Quritilmagan bargdan olingan shira bilan qutur, temratki va yaralar davolanadi.

Otquloq turlarining bargi ilgaridan stinga kasalligiga qarshi yaxshi vosita hisoblanadi. Uni yana teri kasalliklarini davolashga qo'llaganlar hamda ovqat Hazm bo'lishini yaxshilash uchun ishlatganlar.

Ilmiy tibbiyotda oddiy otquloqning dorivor preparatlari (damlama, qaynatma, poroshok, suyuq ekstrakt)ni me'da-ichak (kolit, enterokolit), qon aralash ich ketishida hamda ichakdan qon ketganda ichish buyuriladi.

Jag`-jag`

Jag`-jag` (Capsella bursa pastoris) – Karamdoshlar oilasiga mansub. O'zbekistonning aholi yashaydigan barcha erlarida uchraydi. U asosan yo'l yoqalarida, dalalarda, bog'larda va begona o't sifatida ekinlar orasida o'sadi.

Jag` - jag` bir yillik, bo'yi 20-60 sm gacha etadigan o't o'simlik. Poyasi bitta, ba'zan bir nechta, shoxlangan yoki shoxlanmagan. Ildizoldi tupbarglari cho'ziq latstepsimon, kentik tishsimon qirrali yoki patsimon kesiq, bandli, poyadagi barglari mayda va bandsiz bo'lib, poyada ketma-ket joylashgan.gullari oq rangli, shingilga to'plangan. Mevasi – tumorga o'xshash, pishganda ochiladigan qo'zoqcha.

May oyidan boshlab yoz bo'yi gullaydi. Mevasi aprel oyidan boshlab pishadi. Jag` - jag` gullaganda hamda mevasi etilgan davrida er ustki qismi o'rib olinadi va soya erda quritiladi.

O'simlik tarkibida xolin, astetilxolin, vitamin S va K, inozit, gissopin glikozidi, saponin flavonoidlar, burso kislota, efir moyi, organik kislotalar, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Xalq tabobatida o'simlikdan tayyorlangan damlama turli qon oqishlari (bachadondan, o'pkadan, me'dadan, ichakdan, buyrakdan va yaralardan) to'xtatish hamda ich ketish, buyrak, jigar, siydik yo'llari kasalliklarini davolash uchun ishlatiladi.

Jag` - jag` o'simligidan quidagicha damlama tayyorlanadi. Biror idishda bir stakan qaynab turgan suv quyib, ustiga o'simlikning maydalangan er ustki

qismidan bir osh qoshiq solinadi va idishning qopqog`ini yopib, 2 soat damlab qo`yiladi. So`ngra dokadan suziladi. Kuniga 4 mahal bir osh qoshiqdan ichiladi.

Ilmiy tibbiyotda jag` - jag` o`simligining er ustki qismidan tayyorlangan dorivor preparatlar (damlama, suyuq ekstrakt) tuqqandan keyingi hamda bachadonning boshqa kasalliklarida qon ketishini to`xtatish uchun ishlatiladi.

Jag` - jag` o`simligining dorivor preparatlari qon bosimini pasaytirish hamda surunkali buyrak yallig`lanishini davolash ta`siriga ega ekanligi tajribada isbotlandi. BaHorda Jag`-jag` ildizoldi to`pbarglaridan somsa qilinadi yoki ovqatga solinadi.

Sebarga

Sebarga (*Trifolium pratensis*) – Burchoqdoshlar oilasiga mansub. Toshkent, Samarqand, Farg`ona, Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlaridagi sug`oriladigan erlarda, ariqlarda, nam joylarda o`sadi.

Sebarga ko`p yillik, bo`yi 25-50 sm gacha etadigan o`t o`simlik. Poyasi ingichka, ko`tariluvchi, sertuk. Bargi ich plastinkali murakkab bo`lib, bandi bilan poyada ketma-ket o`rnashgan. Pastdagi bargchalari tuxumsimon, mayda tishsimon qirrali, yuqori tomondagilari cho`zinchoq, tekis qirrali bo`ladi. Gullari pushti yoki qizil rangli bo`lib, boshqacha to`plangan. Mevasi – bir urug`li, ellipssimon yoki cho`ziq tuxumsimon dukkak.

April – sentyabr oylarida gullaydi, mevasi iyun-oktyabrda pishadi.

O`simlik gullaganda gul to`plami va poyaning yuqori qismidagi barglari yig`iladi va soya erda quritiladi. Sebarga o`simligi tarkibida vitamin S, karotin, efir moyi, glikozidlar, smolalar, saponinlar, flovonoidlar, salistil, kumar kislotalari va boshqa birikmalar bor.

Abu Ali ibn Sino quritilmagan o`simlik shirasini yaralarga va ko`zga oq tushganda davo qilgan hamda o`simlikning er ustki qismidan tayyorlangan qaynatmani siydik yo`li kasalligida siydik haydovchi dori sifatida ishlatiladi.

Xalq tabobatida o`simlik gulidan tayyorlangan qaynatma yoki damlama balg`am ko`chiruvchi, siydik Haydovchi va antiseptik dori sifatida hamda yara va

kuygan terini, xafli shishlarini davolashda ishlatiladi. Quritmagan bargini maydalab, yara va shishgan joyga qo'yib bog'lanadi. Bulardan tashqari, o'simlikning er ustki qismidan tayyorlangan qaynatma bezgak, me'da va shamollash kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Barg shirasi shirinchaga davo qiladi.

O'simlikning gulidan qaynatma tayyorlash uchun og'zi yopiladigan idishga bir stakan suv quyiladida, quritilgan va maydalangan gulidan 20 g solib, bir oz qaynatiladi va bir soat qo'yib qo'yiladi. So'ngra dokada suziladi. Qaynatmadan har 2-4 soatda bir osh qoshiqdan ichiladi.

Sebarga gulidan damlama tayyorlash uchun idishga bir stakan qaynab turgan suv quyiladi-da, ustiga quritilgan va maydalangan gulidan 3 osh qoshiq solib, bir soat damlab qo'yiladi. So'ngra dokadan suziladi. Kuniga 2-3 maha 2 osh qoshiqdan ichiladi.

Sebarga o'simligining kuchli siylik haydovchi ta'siriga ega ekanligi tajribada aniqlangan. Shuning uchun ham uni ilmiy tibbiyotda siydik haydovchi ta'sirga ega ekanligi tajribada aniqlangan. Shuning uchun ham uni ilmiy tibbiyotda siydik haydovchi dori sifatida ishlatish tavsiya etilgan.

Uchma

Uchma (*Ceratocarpus orthoceras*) - Sho'radoshlar oilasiga mansub.

O'zbekistonning deyarli Hamma viloyatlaridagi dalalarda, cho'llarda, adirlarda, tog` yon bag'irlarida, begona o't sifatida ekinlar orasida o'sadi. Bu o'simlik shaHarlarda Ham uchraydi (9-rasm).

Uchma bir yillik, bo'yi 1-7 sm gacha etadigan o't o'simlik. Poyasi bargsiz bo'ladi. Bargi uzun bandli, uch bo'lakka bo'lib qirqilgan. Gullari mayda, sariq, aloHida-alohida poya uchiga joylashgan. Mevasi boshqacha to'plangan bir urug`li yong`oqcha..

Mart-aprel oylarida gullaydi, mevasi aprel-mayda etildi. O'simlik gullaganda er ustki qismi yig`ib olinadi va soya erda quritiladi. Uchma o'simligining er ustki qismi tarkibida qandlar, smola, **efir moyi**, uron kislotasi,

karotin, anemonin va boshqa birikmalar bor. Uzoq vaqtlardan beri xalq tabobatida uchma o'simligi yara, ekzema va boshqa teri kasalliklarini davolashda ishlatilib kelinadi.

Uchma o'simligining quritilgan er ustki qismidan tayyorlangan surtma dori, o'simlikdan ajratib olingan sof holdagi anemonin eritmasi va quritilmagan o'simlik shirasi tabobatda yara, chipqon va boshqa teri kasalliklarini davolash uchun tavsiya etilgan.



9- rasm. *Ceratocarpus urticulosus* – uchma (otashak)

Oddiy chuchukmiya

Oddiy chuchukmiya (*Glycyrrhiza glabra*) – Burchoqdoshlar oilasiga mansub. Chuchukmiya O'rta Osiyoning ko'pchilik nohiyalarida keng tarqalgan bo'lib, asosan ariq va daryo bo'ylarida, to'qayzorlarda, sho'r va qumli erlarda, qumli tog' qiyaliklarida Hamda begona o't sifatida ekinzorlarda o'sadi.

Chuchukmiya turlari ko'p yillik, bo'yi 50-100, ba'zan 150 smgacha etadigan o't o'simlik. Er ustki qismikuchli taraqqiy etgan bo'ladi. Poyasi bir nechta, tik o'suvchi, shoxlangan yoki kam shoxlangan bo'lib, mayda nuqtasimon bezlar bilan qoplangan. Bargi toq patli, murakkab, 3-7 juft bargchalaridan tashkil topgan. Barglari tuxumsimon, cho'ziq tuxumsimon, ellipsimon va lanstetsimon, tekis qirrali, yopishqoq bezli tuklari bilan qoplangan bo'ladi. Bargi poyada bandi bilan ketma-ket o'rnashgan. Gullari oqish – binafsha rangli bo'lib, barg qo'ltig'idan chiqqan shingilga to'plangan. Mevasi – pishganda ochilmaydigan dukkak.

April – iyul oylarida gullaydi, mevasi may-sentyabrda pishadi. Chuchukmiya turlarining ildizi erta baHorda yoki kuzda yig'ib olinadi. Ildizini belkurak, ketmon bilan kovlab (ko'p bo'lsa, traktor plugi bilan haydab) olinadi. Yig'ib olingan ildizlarni po'stloqdan tozalanmay yoki so'litmay, po'stlog'idan ajratib olinadi. Ildizni ochiq havoda quritiladi.

Chuchukmiya turlarining ildigi tarkibida juda ham shirin samoninlar tipidagi triterpen birikma-glistirizin Hamda qandlar, kraxmal, achchiq modda, flavonoidlar, kumarinlar, **efir moyi**, asparatin va boshqa moddalar bor. Chuchukmiya er ustki qismi flavonoidlarga juda boy hamda uning tarkibida yana saponinlar, efir moyi, oshlovchi va boshqa birikmalar bor.

Abu Ali ibn Sino chuchukmiya ildizi bilan buyrak, qovoq, me'da yallig'lanishi, isitma, o'pka va boshqa kasalliklarni davolangan.

Xalq tababatida chuchukmiya ildizidan tayyorlangan qaynama tomoq quriganda, nafas qisishi, ko'kyo'tal, ko'krak og'rig'i Hamda me'da – ichak (qabziyat, me'da yallig'lanishi) kasalliklarni davolashda qo'llanadi. Bulardan tashqari, ildiz qaynatmasi yo'tal va yuqori nafas yo'llari shamollaganda balg'am ko'chiruvchi hamda siydik haydovchi va engil surgi dori sifatida ishlatiladi.

Chuchukmiya o'simligi ildizidan qaynatma tayyorlash uchun og'zi yopiladigan idishga bir stakan suv quyiladi, ustiga maydalangan ildizdan 15 g solib, 10 minut qaynatiladi va bir soat qo'yib qo'yiladi. So'ngra dokadan suziladi. Qaynatmadan yuqorida ko'rsatilgan kasalliklarga davo qilish uchun kuniga 4-5 mahaL bir osh qoshiqdan ichiladi.

Ilmiy tibbiyotda chuchukmiya gullarining dorivor preparatlari (quyuq ekstrakt, quruq ekstrakt, sharbat, ildiz poroshogi) nafas yo'llari kasallanganda balg'am ko'chiruvchi, o'rab oluvchi, surunkali kabziyada engil surgi dori sifatida ishlatiladi. Bulardan tashqari, chuchukmiya turlarining dorivor preparatlari ko'krak kasalliklarida ishlatiladigan hamda siydik haydovchi va ich yumshatuvchi choy-yig'malar tarkibiga kiradi.

Chuchukmiya ekstrakti balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida ishlatiladigan ko'krak eleksiri, poroshogi, surgi dori sifatida qo'llaniladigan chuchukmiya murakkab poroshogi tarkibiga kiradi.

Farmastevtika amaliyotida ildizidan tayyorlangan sharbat quyuq ekstrakt, quruq ekstrakt, poroshog, xab dori tayyorlash va suyuq dorilarni ta'mini shirin qilish uchun qo'llaniladi.

Shildirbosh (*Sphaerophysa salsula*) – Burchoqdoshlar oilasiga mansub.

Shildirbosh Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Surxandaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'istonda cho'l, yarim cho'l, sho'rtuproq va ariq bo'ylaridagi qumliklarda, to'qaylarda Hamda begona o't sifatida ekinlar orasida uchraydi.

Shildirbosh ko'p yillik, bo'yi 25-100 sm gacha etadigan o't o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, kul rang-yashil tusli shoxlangan. Bargi toq patli, murakkab bo'lib, poyada bandi bilan ketma-ket joylashgan. Gullari qizil, barg qo'ltig'idan o'sib chiqqan shingilga to'plangan. Mevasi – cho'ziq sharsimon, tuksiz, pishganda ochilmaydigan dukkak.

May-iyun oylarida gullaydi, mevasi iyun-avgustda pishadi. O'simlikning hamma qismi za'harli. Shildirbosh gullaganda er ustki qismi o'rab olinib, soya erda quritiladi. O'simlik tarkibida alkaloidlar bor. Alkaloidlar yig'indisidan sferofizin ajratib olingan.

Ilmiy tibbiyotda shildirbosh alkaloidlarning preparati – sferofizin benzoat gipertoniya kasalligini davolashda, ayuollarning tug'ishini osonlashtirish va tezlatish, tuqqandan so'ng bachadondan qon ketishini to'xtatish uchun ishlatiladi.

3-bob. EFIR MOYLARINING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

Juda qadim zamonlardan buyon ovqatlarga mazali ta'm berish maqsadida turli-tuman ziravor va zfir moyli o'simliklarning barglari, mevalari hamda urug'lari solinadi.

Keyingi yillarda xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida efir moyli o'simliklardan olinayotgan xom ashyo mahsulotlari, ayniqsa, parfyumeriya sanoatida keng qo'llanilmoqda. Farmastevtikada ba'zi bir efir moylari hamda ularning komponentlari mentol, timol, anetol davolash, antiseptik xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli turli xil dorilarni tayyorlashda foydalaniladi. Mentolning spirtli eritmasidan og'iz bo'shig'i jarohatlanganda va nafas olish yo'llari shiliqlanganda, oshqozon, ichak yo'llari yuqumsiz kasalliklar bilan og'riganda ishlatiladi.

Efir moylari uchuvchanlik va bakteristidlik xususiyatlarga ega bo'lganligi tufayli dezinfekstiya qilishda hamda o'simliklarni zararkunanda va kasalliklariga qarshi kurashda ishlatiladi. Efir moylari oziq-ovqat sanoatida keng qo'llaniladi. Konserva va baliq- chilik sanoatlari uchun efir moylari juda zarurdir.

Ba'zi o'simliklarning (koriandr, anis, tmin) urug'laridan efir moylari ajratib olinganidan so'ng, ulardan texnik maqsadlar uchun ishlatiladigan yog'lar ham olinadi. O'simlik kunjarasidan esa hayvonlar uchun yuqori sifatli oqsilli oziqa tayyorlanadi.

Ko'pchilik efir moyli o'simliklar — atirgul, gulsavsar, rayhon hamda liliya, manzarali lavanda, koriandr, marmarak va issoplar nektarli o'simlik hisoblanadi.

Xalq tabobati tarixi juda uzoq-uzoq zamonlarga borib taqaladi. Tabiiy dorivor giyohlarni aniqlashda hayvonlar ustidagi kuzatishlar ham yordam bergan. Ayrim hayvonlar kasalliklardan ma'lum bir o'simlikni iste'mol kilib tuzalib ketishgan. Masalan, echkilar kofeni ixtiro qilishga sabab bo'lgan bo'lsa, yaralangan kiyiklar mo'miyo yoki kiyik o'tini aniqlashga yordam berishgan. Umuman olganda dorivor giyoH va o'simliklardan foydalanish o'zining qadimiy zaminiga ega. Bu zamin qadimiy Hind tabobatidan boshlangan desak xato qilmaymiz.

Hind tabobatida dori-darmonlari haqidagi ma'lumotlarni ulug' hakim Sushrut (eramizgacha bo'lgan VI asrda yashagan) yozib qoldirgan "Ayur-veda" nomli mashhur kitob sahifalari bizgacha olib kelingan. Bu nodir kitobda 700 ta shifobaxsh giyohlarga tavsif berilib, o'ziga xos medistina qonun-qoidalari asosida ularda foydalanish omillari bayon qilingan.

Hind tabobati haqidagi "Ayur-veda" kitobi asosida Tibet tabobati Haqida Hikoya qiluvchi "Chjud-shi" ("To'rt asos") kitobi yaratilgan. Unda Hind tabobatining barcha asoslari to'la saqlangan bo'lib, qo'shimcha ravishta Xitoy tabobatida foydalaniladigan dorivor o'simliklardan 25% i kiritilib, davolash vositalari sezilarli darajada o'zgartirilgan.

Tibet tabobati buddizim bilan birgalikda asta-sekin Xitoy, yaponiya va Mo'g'listonda, keyinchalik esa Rossiya va Buryatiyada tarqaldi. Buryatiya monaxlari Tibet va Hindistondan uzoqlarda bo'lgani uchun ham, mahalliy shart-sharoitdan kelib chiqib, ko'pgina dorivor o'simliklarni o'z tuproqlarida o'sadigan xillari bilan almashtirdilar. Shunday qilib Buryatiyada Tibet tabobatidagi dori-darmonlarning yarmi Zabaykal'e o'simliklar dunyosidan olindi.

Qadimgi Misrda shifobaxsh giyohlarning sir-asrorini bilib, dorivorlar tayyorlaydigan tabobat sohiblari ko'p bo'lgan. Ular tabiat bag'ridan mikroblarni o'ziga singdirmaydigan moddalarni ham topishdi. Bundan 4-5 ming yillar ilgari mumiyolangan odam gavdalari bugungi kungacha etib kelgani buning isbotidir.

Xitoy tabobatining qomusi "Ney-stzin" ning shuhrati hamon yashamoqda. Bu dastur amalning muallifi bundan 25 asr ilgari yashab o'tgan hakim Byan Stao edi. Eramizning II-III asrida yashab o'tgan xitoy tabibi Jun Fen esa ana shu asar asosida dunyoda birinchi "Farmakologiya" kitobini tuzdi. Undan dorivor o'simliklarning mingga yaqin turi joy oldi. Ulardan bugungi kunda ham keng foydalanilmoqda.

Kadimgi Yunonistonda ham shifobaxsh giyohlarni izlashga katta e'tibor berilgan. Rim imperiyasida hatto Kirit orolida dorivor o'simliklar o'stiriluvchi plantatstiyalar va maxsus "ildiz kesuvchi" dori tayyorlovchilar bo'lgan.

Qadimgi Rusda ham dorivor giyohlarning shifobaxshligi g'oyat qadrlangan. Bu erda shifobaxsh giyohlarning siri maxfiy saqlanib, avloddan avlodga vasiyat qilib qoldirilgan. Dorivor o'simliklar bilan shug'ullanuvchilar "Znaxarya" deb atalgan. Ular ayni paytda tabibgarchilik bilan ham shug'ullanishgan.

O'n birinchi asrning birinchi yarmidan boshlab, Kiev Rusida yozuvning paydo bo'lishi bilanoq, dorivor o'simliklar haqidagi bilimlarni yozib qoldirishga harakat qilingan. XV asrning o'rtalarida Kievda dorixonalar ochib, shifobaxsh o'simliklar bilan savdo qilish yo'lga qo'yilgan.

Rossiyada birinchi dorixona 1581 yilda paydo bo'lgan. 1588 yilda "Travnik tamoshnix zdeshnix zeliy" degan dorivor o'simliklar Haqidagi kitob chop etilgan.

1706 yilda Pyotr 1ning farmoishiga binoan Moskvada birinchi dorixona xo'jaligiga asos solindi. Bu Rossiyadagi birinchi botanika bog'i edi. U keyinchalik 1804 yilda Moskva Universiteti ixtiyoriga berildi. hozirda bu bog'da 4 mingdan ortiq turli xildagi o'simliklar o'sadi.

Pyotr 1 davrida Sang-Peterburgda ham "dorixona xo'jaligi" vujudga keltirildi. U hozirgi Fanlar akademiyasining botanika bog'ini ro'yobga chiqarishda asos bo'lib xizmat qildi.

Shvedlar bilan bo'lgan urush yillarida Pyotr 1 Poltava gubernasining boy o'simliklar dunyosiga e'tibor bilan qaradi. Uning ko'rsatmasiga binoan harbiy kasalxona qoshida dorixona tashkil etildi va unda "dorixona ombori" bo'lishiga ham ahamiyat berildi. Shunday qilib 1709 yildan e'tiboran dorivor o'simliklarning sanoat usulida yig'ib olish va dori tayyorlash boshlanib ketdi.

1809 yilda Lubna shahrida Rossiyada birinchi dorivor o'simliklar bilan savdo qiluvchi xususiy dorixona ochildi. U shahardan tashqaridagi dorixona va do'konlarni ham dorivor o'simliklar bilan ta'minlay boshladi. Shunday qilib dorivor o'simliklar savdosi daromadli savdo tarmog'iga aylana bordi. Bu esa dorivor o'simliklar haqidagi sir-asrorlarning ko'payishiga, turli-tuman avsonalarning to'qilishiga sabab bo'ldi. Natijada ayrim dorivor giyohlarning "qudrati" oshirib-toshirib madH etiladigan darajagacha borildi.

1929-1930 yillarda esa Kubon qishloq xo'jaligi instituti qoshida dorivor va xushbo'y o'simliklar bo'limi ochildi. Shunday qilib dorivor o'simliklar masalasi bilan shug'ullanish mutaxassislar qo'liga o'tdi. hozir Butunittifoq dorivor o'simliklarni o'rganish ilmiy tekshirish instituti va SSSR Fanlar Akademiyasining bir qator institutlarida dorivor o'simliklardan foydalanish masalalarini atroflicha o'rganmoqda. O'zbekistonda ham shifobaxsh o'simliklar masalasi bilan shug'ullanuvchi aloHida ilmiy-tekshirish instituti tashkil etilgan.

Qadimgi O'rta Osiyo olimlari sharq tabobatini chuqur o'rganib, uni ma'lum bir uslubiyatga solishga harakat qilishgan. Dorivor o'simliklarga oid juda ko'p kitoblarni boshqa tillardan arab tiliga tarjima qilishgan. Ana shular asosida sharqlik buyuk olim va mutafakkil Abu Ali ibn Sino o'zining mashHur "Tib qonunlari" asarini yaratgan. Ushbu asarda olim 900 ga yaqin dorivor o'simliklardan foydalanish usullarini ko'rsatib berdi.

Arxeologiya bo'yicha qazish ishlari shuni ko'rsatadiki, qadimgi MuvorounnaHr shaHarlari bulmish Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va boshqa shaharlarda qadimgi dorixonalar mavjud bo'lgan. Bu erda asosan o'simlik va hayvonot dunyosidan olingan xom ashyolardan har xil dori-darmonlar tayyorlangan. Qadimda dorivor o'simliklar sifatini ta'riflashda ko'pincha she'riy baydlardan foydalanilgan. Temuriy sulolalar hukumronligi davrida Balx, Samarqand va Shahrisabz, Navoiy zamonasida Hirotda tabobat ilmi bilan shug'ullanuvchi olimu fozillarga keng imkoniyatlar yaratilib berilgan. Bu zamonlarda nazmning aruz vaznida, ko'pincha masnaviy usulida tabobat bo'yicha yirik asarlar tartibi berilgan. Toshkentdagi Ibn Sino nomli nashriyot 1990 yilda chiqargan "tabobat durdonalari" kitobida o'nga yaqin ana shunday asarlardan parchalar berilib, mualliflar haqida minnatdor fikirlar bildirilgan.

Hozir O'zbekiston hududida tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o'simliklardan ilmiy medistinada foydalanilmoqda. O'zbekistondagi dorixonalar orqali aHoliga 54 xildagi dorivor o'simliklar etkazib berilmoqda.

Dorivor o'simliklardan jenshenning xususiyatlari butun dunyoga ma'lum. Jenshen – araliya gullilar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik bo'lib, tabiiy holda Sharqiy Osiyoda o'sadi. Bo'yi 30-50 santimetr keladigan bu o'simlikning barglari panjasimon shaklda, gulli ko'kish oq rangda, mevasi sersuv. Qizig'i shundaki, bu qimmatbaHo dorivor o'simlikning ayrim jihatlari insonning tana a'zolariga o'xshab ketadi. Masalan, besh yaproqli barglari – insonning besh panjasiga ramz bo'lsa, kizil mevalari buyraksimon shakldaligi bilan kishini ajablantiradi. Turli-tuman yo'g'onliklagi xushbo'y ildizlari esa shaklar insonning turlicha harakatdagi shaklu shamoiliga o'xshashligi bilan kishini hayratga soladi.

Sharq xalqlari asrlardan buyon jenshendan foydalanib kelmoqdalar. Bu o'simlik tarkibida turli-tuman noyob darmondorilar bo'lib, ildizidan tayyorlangan suyuq eritma va un talqoni organizimni quvvatga kiritish xususiyatiga ega, bundan tashqari qon bosimi va turli asab kasalliklarini davolashda ham keng ishlatiladi. hozir mamlakatimizda jenshendan har xil dorilar tayyorlashga e'tibor berilyapti. Shu maqsadda Primore va Xabarovsk o'lkalarida jenshen plantastiyalari ko'plab tashkil etilmoqda.

O'z-o'zidan savol tug'iladi: jenshenga monand shifobaxsh o'simliklar O'rta Osiyoda o'sadimi? Bu savolga "Ha" deb javob qaytarish mumkin. Bu o'rinda Yakkabog' nohiyasidagi Toshqo'rg'on qishlog'idan topilgan jenshenga monand o'simliklar misol bo'la oladi. Faqat shuni eslatib o'tish kerakki, boshqa o'simliklar jenshen kabi uzoq vaqt sinovdan o'tmagan va ular hali to'liq tekshirilib ko'rilmagan. Samarali tadqiqotlar natijasida noyob dorivorlik xususiyatiga ega bo'lgan yuzlab o'simliklar aniqlangan.

O'zbekiston tabiati o'zining betakror go'zalliklari, quyoshi, havosi, tuprog'i va suvi bilan alohida ajralib turadi. Shuning uchun Ham uning o'simliklari dunyosi g'oyat boy. Respublikamizda 4500 dan ortiq turdagi o'simliklar o'sadi. Bundan 577 tasining dorivorlik xususiyati aniqlangan. Shuni mamnuniyat bilan qayd etish kerakki, juda ko'p dorivor o'simliklar o'zining shifobaxshligi bilan xalqimiz o'rtasida keng tanilgan bo'lib, ular xalq tabobatida keng qo'llanib kelinmoqda. O'zbek oilalarida ayrim dorivor o'simliklarning nomini kattayu kichik – hamma

ixlos bilan tilga olib, o'zni kelganda ulardan foydalanishi hech kimga sir emas. Xalq tabobatidagi "ommabop bilim" avloddan avlodga o'tib, sayqallanib bormoqda, desak xato bo'lmaydi.

Ma'lumki, mamlakatimizda dorivor xususiyatiga ega bo'lgan 230 xildagi shifobaxsh o'simliklardan farmastevtika sanoati uchun xom ashyo tayyorlanmoqda. Bugungi kunda medistinada qo'llanilayotgan dori-darmonlarning 38 foizi dorivor o'simliklar xom ashyosidan olingandir. Shuni aytish kerakki, sanoat ko'lamida kimyoviy sintez orqali olinayotgan turli xildagi alkaloidlarning tannarxi dorivor o'simliklar xom ashyosidan olinayotgan alkaloidlarga nisbatan ancha qimmatga tushmoqda. Bunda faqat tannarx haqida aytiladi, xolos. Inson organizimiga ko'rsatadigan samaralari ta'siri va asoratsizligi esa hammaga ayon gap. Ko'rinib turibdiki, kimyoviy sintezdan ko'ra tabiiy xom ashyodan preparatlar tayyorlash maqsadga muvofiq keladi. Demak, dorivor o'simliklar xom ashyo bazasini kengaytirish – hech kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar jumlasiga kiradi.

Hozir shifobaxsh o'simliklardan tayyorlangan dori-darmonlardan keng miqyosda amalda foydalanib kelinmoqda. Bugungi kunda ruhiy kasalliklarni davolashda dorivor o'simliklarning 18 xilidan, rakni davolashda 7 xilidan, qandli diabetda-21 xilidan, aterosklerozda 25-xilidan, oshqazon kasalliklarida-10 xilidan, qon bosimi kasalliklaridan 22 xilidan keng foydalanilmoqda. Bundan tashqari kashandalik va alkogolizmning oldini olish, qondagi xolestroid moddasini muvofiqlashtirib turish va boshqa ko'pgina kasalliklarni engib o'tishda ham shifobaxsh giyohlardan tayyorlangan dori-darmonlar yordamga kelmoqda.

Respublikamizda dorivor o'simliklardan farmastevtika sanoatida foydalanishga katta e'tibor berilmoqda. Shu maqsadda ayrim viloyatlarda respublika o'rmon xo'jaligi qaramog'idagi dorivor o'simliklar etishtiruvchi maxsus xo'jaliklar tashkil etilgan.

Respublikamizda dalalarida dorivor o'simliklar ko'plab turlari tarqalgan. Lekin ulardan foydalanish sust bo'lmoqda. Bunga sabab shifobaxsh giyohlarni o'rganish va ulardan dori-darmonlar tayyorlash bilan hamon jiddiy shug'ullanilmayapti. O'zbekiston FA Botanika ilmiy ishlab chiqarish markazi,

F.N.Rusanov nomidagi Botanika bog'i va boshqa muassasalarda tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Viloyat dorixonalar birlashmasi xodimlari kuchi bilan Har yili 12-15 tonna atrofida na'matak, shuningdek suv qalampiri, makkajo'xori popugi, zubturm, ituzum yig'ib olinmoqda.

Respublikamiz tabiiy boyliklarga boy bo'lib, dorivor o'simliklar ana shu boylikning bir qismini tashkil etadi, xolos. Ayrim shifobaxsh giyox va o'simliklarning zahirasi katta, biroq, bu Had-Hisobsiz degani emas. Ulardan rejasiz foydalanavergandan so'ng har qanday zapas Ham bir kuni tugab qolishi turgan gap. Shunga ko'ra, tabiiy sharoitda o'sadigan dorivor o'simliklarni asrash, ulardan oqilona foydalanish va ko'paytira borish eng muhim vazifalardan biriga kiradi.

Shuni aytish kerakki, insonning xo'jalik faoliyati munosabati bilan tabiiy sharoitda o'sadigan o'simliklar maydoni tobora kamayib ketmoqda. Bunga asosan yangi erlarni o'zlashtirish asosiy sabab bo'lmoqda. Hozirgi kunda keng yoyilgan shirkatchilar va ayrim kishilarning dorivor o'simliklarni tayyorlashga notug'ri munosabatda bo'lishi ham tabiiy sharoitda o'sadigan dorivor o'simliklarning qurib qolishi va kamayib ketishiga olib kelmoqda.

Dorixona tarmoqlari va fermastevtika sanoatining ayrim dorivor o'simliklarga bo'lgan talabni qondirish maqsadida shifobaxsh giyoh va o'simliklarni o'stirishga ixtisoslashtirilgan bo'limlar tashkil etilmoqda. Negaki, tabiiy sharoitga o'sadigan dorivor o'simliklarni tayyorlash iqtisodiy jihatdan foyda keltirmaydigan bo'lsa, unday hollarda bunday o'simliklarni madanilashtirish zaruriyati tug'uladi. Albatta, yovvoyi holda o'sadigan dorivor o'simliklarni madaniylashtirganda uning agrotexnikasiga alohida e'tibor berish, tabiiy sharoitdagi iqlim va boshqa holatlarni saqlab qolish lozim. Shundagina bu o'simlik o'zining dorivorlik xususiyatini yo'qotadi.

Dorivor o'simliklarni yig'ib-terib olishda ularning tabiiy resuslariga ziyon etkazmaslik muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, dorivor o'simliklar bir yoki bir necha yil ichida batamom yig'ishtirib olinib, shu maydonlarda ular qaytib ko'karmasligi mumkin. Bu ayniqsa, tuganak va ildiz qismidan foydalaniladigan

o'simliklarga ta'luqli. O'zbekiston tog'larida ana shunday o'simliklardan sunbul, oltin ildiz, anzur piyozi, ravoch ko'p miqdorda kovlanib olinib, ularning tabiiy zapaslariga katta ziyon etkazilgan. O'rmon xo'jaligiklari hozir bu o'simliklarni ko'paytirish bilan ham shug'ullanishmoqda.

Shifobaxsh giyoh va o'simliklarni yig'ib-terib olishda maydon va uchastkalarda navbatma-navbat foydalanilgan ma'qul. Shunday qilinganda dorivor o'simliklarni yig'ishtirib olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun o'rmon xo'jaliklari va maydonlaridagi dorivor o'simliklar o'sadigan botanik-geografik joylarni o'rganib chiqib, ulardan foydalanishni yilma-yil va teng taqsimlab chiqishlari kerak bo'ladi. Bir yoki ikki yillik surunkada, dorivor o'simliklar terib olinishi kartalari tuzilsa hamda bunga rioya qilinsa, o'simliklarning tabiiy va mo'l rivojlanishi ta'minlangan bo'ladi. Bu borada Kitob o'rmon xo'jaligida yaxshi ishlar qilinyapti. Bu erda dalachoy, kiyik o'ti va qizilmiya choy o'tini yig'ishtirib olish, saqlash va ko'paytirish bo'yicha aniq tadbirlar ishlab chiqilgan. Natijada bu o'simliklarning tabiiy zahiralari aslo kamaymasdan, balki ko'payib bormoqda.

Shahrisabz tuman dorixonasi xodimlari dorivor o'simliklarni yig'ib-terib olishni uyushtirish borasida yaxshi tajriba to'plashgan. Dorixona xodimlari qishloq joylaridagi bir necha maktab va tog' etaklarida joylashgan oromgohlar bilan doimiy aloqa o'rnatishgan. Ular maktab va oromgohlarga borishib, dorivor giyohlar va ulardan foydalanish haqida suhbat va uchrashuvlar o'tkazishadi. O'quvchilarga yig'ib olinishi lozim bo'lgan o'simlik mevasi va shifobaxsh giyohlarning namunalarini ko'rsatishadi, gul va barglardan tashkil etilgan maxsus gerbariyni namoyish etishadi.

X U L O S A

1.Hozirgi vaqtda er yuzida 300 oilaga mansub bo'lgan o'simlo'iklar mavjud bo'lib shulardan 87 oilaga kiruvchi 2500 ta turlarida efir moylari borligi aniqlangan.

2.O'zbekiston florasida moyli o'simliklarning quyidagi turlari:arpabodiyon, oq zira, kashnich, qora zira, tog`rayhon, kiyik o't, limon o't, tog`jambil, yalpiz, marmark, sherolg`in, shuvoq, avrug`, yovvvoyi sabzi, qo'ng`ir zira, choyut, shashir, boldirg`on, alqoro'ti kabi ekinlarning urug`ida, mevasida, bargida, poyasida xushbuy moddalar-efir moylari mavjud. Ularning miqdori 0,1-6,7 % atrofida bo'ladi. Efir moylar tarkibida har xil organik moddalar (karbon suvlari, spirt, efirlar, organik kislotalar va h.) mavjud. Efir moyli ekinlar aksariyat xolda Ariaceae oilasiga mansub.

3.Xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida efir moyli o'simliklardan olinayotgan xom ashyo mahsulotlari, ayniqsa, parfyumeriya sanoatida keng qo'llanilmoqda. Farmastevtikada ba'zi bir efir moylari hamda ularning komponentlari mentol, timol, anetol davolash, antiseptik xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli turli xil dorilarni tayyorlashda foydalaniladi. Mentolning spirtli eritmasidan og`iz bo'shig`i jarohatlanganda va nafas olish yo'llari shiliqlanganda, oshqozon, ichak yo'llari yuqumsiz kasalliklar bilan og`riganda ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Adilov T.A. Yadovitye i alkaloidonosnye rasteniya Uzbekistana. Izd-vo «Fan» UzSSR, T., 1970. st. 103-132.
2. Belskaya E.M. Botanika. «O'kituvchi» nashriyoti, T, 1988.
3. Gafurov A.T. Umumiy biologiya kursida mahalliy materiallardan foydalanish «O'kituvchi» nashriyoti, T, 1971.
4. Goryaev M.I. Efirnye masla flory SSSR. Izd-vo AN KazSSR, Alma-Ata, 1952.
5. Granitov I.I. O'zbekistonning foydali yovvoyi o'simliklari haqida qisqacha ma'lumotlar. O'quvpednashr. T. 1953.
6. Zakirov P.K. Rastitelnyy pokrov Nuratinskix gor. Izd-vo «Fan» UzSSR, T. 1969.
7. Kudryashov S.N. Efirnomaslichnye rasteniya i ix kultura v Sredniy Azii. Izd-vo Komiteta nauk UzSSR T. 1936.
8. Kollektiv. Rastitelnyy pokrov Uzbekistana. t. I-IV, izd-vo «Fan» UzSSR, T. 1971, 1973, 1976, 1984.
9. Mastku Ya. Kreycha, Atlas lekarstvennyx rasteniy. Uzbekistana. t. I-IV, izd-vo «Fan» UzSSR 1970.
10. Hamidov A. Nabiev M, Odilov T. O'zbekiston o'simliklar aniqlagichi. «Ukituvchi» nashriyoti, T, 1987.
11. Hojimatov Q.H. O'zbekistonning vitaminli o'simliklari. O'zSSR «Fan» nashriyoti T. 1973.
12. Hojimatov Q.H., Akramov A.R. O'zbekistonning asosiy ziravor o'simliklari. O'zbekiston K.P MK nashriyoti, T, 1968.
13. Hojimatov Q., Olloyorov M. O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari va ularni muhofaza etish. O'zSSR «Fan» nashriyoti, T., 1988.